



**HAYVONOT OLAMIGA SAYOHAT**

**Toshkent • 2004**  
**„ZAR QALAM“**







**Rustam Mirzayev**  
**Abduvohit Rahimov**

**HAYVONOT**  
**OLAMIGA**  
**SAYOHAT**



Toshkent • „ZAR QALAM“ • 2004

28.6

Ushbu kitobda hayvonot olamining ayrim turlari, ularning vakillari, yashash tarzi va o'ziga xos xususiyatlariga doir qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Unda o'quvchilarga qiziqarli bo'lishi uchun zoologiyada qabul qilingan klassifikatsiyadan chetga chiqildi va hayvonlarning yashash tarzi hamda boshqa ba'zi xususiyatlari asos qilib olindi. Kitobda yirtqichlar, primatlar, o'txo'r hayvonlar, kemiruvchilar, sudralib yuruvchilar, qushlar va baliqlarning ayrim vakillari alohida-alohida ko'rib chiqilgan. Kitobdagi rangli rasmlar ham o'quvchilarning hayvonlar haqidagi bilimlarini to'ldirishga xizmat qiladi.

Kitob, asosan, kichik va o'rta yoshdagi maktab o'quvchilariga mo'ljallangan. Shunday bo'lsada u barcha kitobxonlar uchun ham qiziqarli bo'ladi, degan umiddamiz.


*Muqova rassomi va dizayner*

*Olga Baklikova*

*Muharrir*

*Bahrom Akbarov*

Ushbu nashrga doir barcha huquqlar himoya qilinadi va myalliflarga tegishlidir. Undagi matn va rasmlarni mualliflar rozilgisiz to'liq yohi qisman ko'chirib bosish taqiqlanadi.



W 30400  
4

© R. Mirzayev, A. Rahimov.  
„QALDIRG'OCH NASHRIYOTI“  
2004

## HAYVONOT OLAMI HAQIDA

*Aziz o'quvchilar! Siz tabiatni va, ayniqsa, hayvonot olamini sevasiz, to'g'rimi? Shu sababli hayvonot olami haqida ko'proq narsalarni bilgingiz keladi. Shu maqsadda hayvonot bog'iga bir necha marta borgansiz, yovvoyi hayvonlarni tomosha qilgansiz. Ayniqsa dalalarga, tog'larga, o'rmonlarga sayohatga borganingizda yovvoyi hayvonlarni uchratib qolsangiz juda quvonib ketasiz, sevinchingiz ichingizga sig'may ketadi. Ushbu kitob ham sizni sevintirish, hayvonot olami haqidagi bilimingizni oshirish maqsadida dunyoga keldi. Kitobni maza qilib o'qing, chiroyli rasmlarini tomosha qiling, tabiatga mehringiz yanada ortadi.*

*Dunyoda hayvonlarning ikki milliondan ortiq turi borligini hamma ham bilmasa kerak. Qizig'i shundaki, ularni Yer kurrasining hamma joyida: yerda, tuproq qa'rida, dengiz, daryo, ko'llarda va hatto havoda uchratish mumkin. Hayvonlar tabiatda va inson hayotida juda katta ahamiyatga ega. Insonning yashashi hamda hayot kechirishi uchun kerak bo'lgan ko'pchilik oziq-ovqat mahsulotlari va kiyim-kechaklar, shuningdek, sanoat uchun zarur ayrim xomashyolar hayvonlardan olinadi. Bundan tashqari, Yer yuzida o'simliklarning ko'payishida, tarqalishida, tuproq tarkibining yaxshilanishi, unumdorligining ortishi, suvlarni tozalash kabi jarayonlarda hayvonlarning hissasi beqiyosdir. Shu sababli butun dunyoda hayvonlarni muhofaza qilishga, ularni asrash va ko'paytirishga juda katta ahamiyat berilmoqda. Hayvonlarni muhofaza qilish uchun, avvalo, ularni parvarish qilishni bilish, nima bilan oziqlanishini o'rganish, xatti-harakatini kuzatish va ular haqida ko'plab kitoblar o'qish zarur.*

*Biz ushbu kitobda hayvonot olamining ayrim turlari, ularning vakillari, yashash tarzi va o'ziga xos xususiyatlariga doir qiziqarli ma'lumotlarni berishga harakat qildik. O'ylaymizki, ushbu kitob tabiatdagi hayvonlarni o'rganishingizda doimiy hamrohingiz bo'lib qoladi.*



## HAYVONOT OLAMIGA SAYOHAT





# YIRTQICHLAR


*Yirtqichlar boshqa hayvonlarni ovlaydigan hayvonlardir. Ular faqat o'zi tutib o'ldirgan o'ljasining go'shtini yangiligida yeydi. Barcha yirtqichlarning ko'zi o'tkir bo'ladi, chunki o'ljasini qancha masofada turganligini aniq chamalash kerak-da. Ba'zi burgutlar o'ljasini 8 km dan ortiq masofadan ham ko'radi.*

*Yirtqichlar ko'pincha kasal hayvonlarni tutib yeyishi va o'limtiklar bilan ham ovqatlanishi sababli tabiatda sanitar vazifasini bajaradi.*













## ARSLON

*Arslon* (sher) — chiroyli, kuchli va jasoratli yirtqich hayvon. Erkagining bo‘yni va ko‘kragida uzun yollari bo‘ladi, bo‘yi 2,4 metrga, og‘irligi 230 kg gacha yetadi. Uchi junli ingichka va uzun dumi zarur bo‘lganda, metalldek qotishi va po‘lat kaltakdek urilishi mumkin. Arslon Hindiston, Eron va Afrikada savanna, cho‘l va chalasahro kabi ochiq yerlarda yashaydi. Qalin o‘rmonlarda bo‘lmaydi. Tungi hayvon. Kunduzi dam olib, kechasi kiyik, zebra, yovvoyi ho‘kiz, to‘ng‘iz kabi hayvonlarni ovlaydi. Ba‘zan uy hayvonlariga ham hujum qiladi. Ko‘pincha oila bo‘lib yashaydi. Faqat juda och qolganda va yarador bo‘lganda odamga hujum qilishi mumkin. Sherlarning hayvonot bog‘ida 70 yilgacha yashaganligi haqida ma‘lumotlar bor. Urg‘ochi sher bolalash vaqti kelganda to‘dadan ajralib chiqadi va uzoqroqda 3, ba‘zan 5—6 ta bola tug‘adi. 5—6 hafta bolalari bilan birga yashaydi, so‘ngra to‘daga kelib qo‘shiladi.

### Bilasizmi?

*Sher yugurganida panjalaridagi katta va o‘tkir changal tirnoqlari ichiga tortilib turadi, shu sababli ular yedirilmaydi, o‘tmaslashib qolmaydi. Sher ba‘zan 2—3 m balandlikdagi molxona devorlaridan sakrab o‘tib, qoramollarga hujum qiladi. O‘ljasini kuchli oyog‘i bilan urib yiqitadi va tishlab olib, devordan sakrab chiqib ketadi. Qornini to‘ydirgan sher 2—3 kunlab hayvonlarga hujum qilmaydi. Sher chiyabo‘rilarga tegmaydi, lekin giyenalarni doimo bo‘g‘ib, o‘ldirib ketadi, chunki sher qarib kuchdan qolganda unga faqat gienalar hujum qiladi-da.*








## YO'LBARS

**Yo'lbars** — eng yirik yirtqichlardan biri hisoblanadi. Hindiston, Xitoy, Eron, Uzoq Sharq va boshqa joylarda o'rmonlarda, to'qaylarda, chakalakzorlarda yashaydi. Ilgari Amudaryo va Sirdaryo qirg'oqlaridagi qamishzorlarda ham bo'lgan. Mo'ynasining rangi, undagi ko'ndalang qora yo'llar yashash joyiga mos bo'ladi. Shu sababli jim yotgan yo'lbarsni eng tajribali ovchi ham sezmaydi. Erkagining gavdasi 3 m gacha yetadi, og'irligi 160 — 170 kg dan ortiq bo'ladi. Asosan, to'ng'iz, bug'u kabi tuyoqli hayvonlarni ovlaydi, kuniga 7—9 kg go'sht yeydi. Suvda yaxshi suzadi. Yo'lbars sherga o'xshash dovyurak emas, balki ehtiyotkor yirtqichdir. Uni yoshligidan qo'lga o'rgatish mumkin. Yo'lbars g'orlarga va boshqa pana joylarga uya quradi va shu yerda bolalaydi. Bolalarini faqat onasi boqib katta qiladi. Qari va yarador yo'lbarslar odamga ham hujum qilishi mumkin.

### Bilasizmi?

*Yo'lbars juda kuchli hayvon, sherdan chaqqon va zo'r. Panjasi bilan bir urib yovvoyi ho'kizning umurtqasini sindirib yubora oladi. So'ngra uning bo'ynini g'ajib o'ldirgach, pana joyga sudrab ketadi. Yo'lbars tozalikni yaxshi ko'radi. Tutib olgan o'ljasini avval yaxshilab tozalaydi, so'ng yeydi. Ortib qolgan go'shtga parazitlar qo'nmasligi uchun ustini barglar va shox-shabbalar bilan bekitib qo'yadi.*










## PUMA


*Puma* (kugar) Amerika qit'asining tog'li o'rmonlarida yashaydi, gavdasining uzunligi 2 metrga yetadi, dumi ham uzun, oyoqlari baquvvat, boshi kichkina, tanasi kulrang-sarg'ish, tumshug'i oq bo'ladi. U tashqi ko'rinishidan sherga o'xshaydi, shuning uchun uni tog' sheri ham deyishadi. Baland daraxtlarga bemalol chiqadi, daraxtdan daraxtga sakray oladi. Asosiy o'ljasi kiyik, buzoq, zebra bo'lsa-da, ayrim maymunlar ham undan qochib qutila olmaydi. Puma katta hayvonlarga hujum qilmaydi. O'ljasini o'tkir tirnoqlari bilan tilka-pora qilib tashlaydi. Puma taxminan 20 yilcha yashaydi.

### Bilasizmi?

*Puma daraxtda bekinib o'ljasini kunlab poylashi mumkin. U tog'lardagi qoya toshlarda ham sakrab juda tez yugura oladi, suvda ham yaxshi suzadi. Yirik yirtqichlardan faqat pumaning — go'shtini ba'zi yerlarda aholi ovqatga ham ishlatadi, hatto bunday ovqat eng yaxshi taomlardan biri hisoblanadi. Puma yuqoriga 5—6 metr, yuqoridan pastga 14 metrgacha sakrashi mumkin.*









## GEPARD

**Gepard** yirik yirtqichlar orasida eng tez yuguradigan hayvon. Gavdasi uzun bo'lmasa ham (1,2—1,3 m) oyoqlari ingichka va uzun, lekin baquvvat, terisi sarg'ish, mayda qora xollar bilan qoplangan. Mushukka o'xshash, lekin yo'g'on ovoz bilan miyovlaydi. Afrika, Hindiston, Eronda tarqalgan. Turkmanistonning janubida ham uchrab turadi. Ko'zi o'tkir, o'ljasini uzoqdan ko'radi. Kiyik, jayron, yovvoyi qo'ylar, quyon va qushlarni ovlaydi, tog' etaklarida, cho'l va sahrolarda yashaydi.

### Bilasizmi?

*Gepard o'ljasini quvganida soatiga 110 km tezlik bilan yuguradi. Lekin uzoq masofaga yugura olmaydi. Bekinib o'ljasini poylab yotadi, o'lja yaqin kelganida birdaniga yugurib unga tashlanadi hamda oldingi oyog'i bilan urib yiqitadi va bo'g'izlaydi. Hindistonda ba'zi ovchilar gepardni qo'lga o'rgatib, undan quyon va kiyik ovlashda foydalanadilar.*







## QOPLON

**Qoplon** (leopard)— chiroyli, xipcha, chaqqon va baquvvat hayvon, gavdasining uzunligi 1,5 metrdan ortiqroq, og'irligi 75—100 kg keladi. Boshi katta va yumaloq, mo'ynasi qora xolli malla tusda bo'ladi. Tropik mamlakatlarda qora qoplon uchraydi, u pantera deb ham ataladi. Qoplon Afrikada va Janubiy Osiyoda tarqalgan, tropik, subtropik va aralash o'rmonlarda, tog' yonbag'irlarida yashaydi, daraxtga oson chiqadi. O'ljasini daraxt shoxlari orasida yoki yerda— o'tlar orasida bekinib yotib tutadi. Qoplon har yili 2—3 ta bola tug'adi, bolalari ikki yilda voyaga yetadi. Antilopa, kiyik, ba'zan esa maymunlarni ham tutib yeydi. Tunda ov qiladi.

**Bilasizmi?**

*Qoplon aholi yashaydigan joylarga yaqin yashaydi va uy hayvonlariga ham hujum qiladi. G'orlarga, chiqib bo'lmaydigan qoyalar orasiga uya quradi.*

## YAGUAR

**Yaguar** — arslon va yo'lbars kabi kuchli va epchil, gavdali hayvon. Tanasining uzunligi 2,5 m ga yetadi. Mo'ynasining ustki tomoni och malla, qorin tomoni oq bo'ladi. Amerika qit'asida keng tarqalgan. Tropik o'rmonlarda, baland o'tlar va qalin qamishlar bilan qoplangan botqoqliklarda yashaydi. Suvda juda yaxshi suzadi. Kunduzi dam olib yotadi, kechasi ovga chiqadi. Kiyik, pekar va to'ng'izlarni ovlaydi. Yaguar ovqat tanlamaydi, toshbaqa va balliqlarni ham yeyaveradi.

## IRBIS

**Irbis** (ilvirs)— kattaligi qoplonga yaqin keladigan, lekin oyoqlari kalta va yo'g'on, qalin va uzun junli, qora xolli hayvon, mo'ynasi qattiq sovuqdan yaxshi saqlaydi. Himolay, Oltoy, Tyanshan, Pomir tog'larida tarqalgan. Qattiq sovuqda tog' etaklariga tushib keladi. Asosan tuyoqli hayvonlar, quyonlar va sug'urlarni ovlaydi.

**Bilasizmi?**

*Irbis 15 metr va undan ham uzoqqa sakraydi, yozda tog'ning 5500 m balandligigacha ko'tariladi, g'orlar va qoyalar orasiga uya quradi, ba'zan otga ham hujum qiladi. Kamayib ketayotganligi uchun irbisni ovlash taqiqlangan.*

2004  
Alisher Navoiy  
nomidagi  
O'zbekiston Mh






## SILOVSIN

*Silovsin* yirtqichlarning mushuksimonlar oilasiga kiradi. Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikaning oʻrmonlarida yashaydi, botqoqlikda yashaydigan turi ham bor, moʻynasi olachipor, malla rangli boʻladi. Tanasining uzunligi 1 m ga yaqin, dum kalta, quloqlari katta va dik kayib turadi, oyoqlari kuchli va panjalari katta. Tunda ov qiladi. Quyon, kemiruvchi, kiyik va qushlarni ovlaydi. Qushlarni sakrab havoda tutib olishi mumkin, uning kushandasi boʻrilardir.

### Bilasizmi?

*Silovsin daraxtga tez, oʻrmalab chiqib ketadi, suvda yaxshi suzadi. Oʻljasini baland joyda poylab yotadi va birdan sakrab, oʻljaning boʻgʻzini gʻajib tashlaydi. Agar bir sakrashda oʻljasini tuta olmasa, ketidan bir-ikki kun poylab yurishi mumkin.*







## BO'RI

**Bo'ri** — itsimon yirtqichlarning eng baquvvat va yirigi bo'lib, gavdasining uzunligi 1,5 m gacha, dumi 35—50 sm, og'irligi 70—80 kg gacha bo'ladi. Junining rangi yashaydigan sharoitga qarab turlicha bo'ladi. Bo'rilar ichida kulrang bo'ri ko'p tarqalgan va kuchlisidir. Asosan, Yevropa va Osiyoda, Hindistonda, Shimoliy Amerikada uchraydi. Siyrak o'rmonlarda, cho'l va dashtlarda, tog' etaklarida, tundrada yashaydi. Sutmizuvchi yovvoyi hayvonlar va chorva mollari bilan ovqatlanadi. Ko'pincha to'da bo'lib yuradi.

To'daga kuchli va yirik bo'ri boshchilik qiladi. O'zbekistonda chorvachilik rayonlarida ko'p uchraydi. Asosan, kechasi ov qiladi, kunduzi ham qo'y podalariga hujum qiladi. Juda ochko'z va hushyor yirtqich. Ikkita bo'ri birgalikda bitta qo'yni yeya oladi. Har yili 6—8 ta, ba'zan 12 tagacha bola tug'adi.

### Bilasizmi?

*Bo'ri bolasini 4—6 hafta emizadi, bu vaqtda erkagi ovqat topib keladi. Bolalarini dushmandan muhofaza qilish uchun uyasidan 5—7 km narida ov qiladi. Bo'g'izlangan qo'yni yelkasiga olib, baland devordan ham oshib ketadi. 5—10 kun ovqatlanmaganda ham kuchli va chaqqon bo'ladi. Bo'ri uvillab o'lja borligi, o'z maydoniga boshqa bo'rilar kelganligi haqida bir-biriga xabar beradi.*









## TULKI

**Tulki** — itsimonlar oilasiga kiruvchi yirtqich hayvonlardan biri boʻlib, Yevropa, Osiyo, Shimoliy Afrika va Shimoliy Amerikada tarqalgan. Tulkilar yashash joyiga qarab moʻynasining rangi, gavdasining katta-kichikligi bilan bir-biridan farq qiladi. Gavdasining uzunligi 60—90 sm, dumi 40—60 sm, ustidagi moʻynasi och sariq, qorin tomoni oq, baʼzan qoramtir boʻladi. Oʻzbekistonda karagan tulki koʻp uchraydi, uning rangi och somon tusli boʻlib, moʻynasi dagʻal boʻladi. Tyanshan tulkisi deb ataladigan togʻ tulkisi ham uchraydi, uning moʻynasi tiniq sargʻish, oyogʻida qora naqshi koʻrinib turadi.


Tulki boʻrsiq, sugʻur kabi hayvonlarning tashlab ketilgan uyalarini oʻziga moslashtirib oladi. Oʻzi ham jarliklarning yonbagʻirlaridan uya kovlaydi. Uyasi chuqur, yoʻlakli, kengaytirilgan joylari ham bor va bir nechta ogʻizli boʻladi.


U asosan, kemiruvchilar va dala zararkunandalarini ovlaydi, baʼzan quyonlar va qushlarni ham tutib yeydi.

Tulkilarning moʻynasi, ayniqsa, Amerika tulkisining qora-kumushrang moʻynasi moʻynachilik sanoatida muhim xomashyo hisoblanadi. U tabiatda koʻp yashamaydi, lekin tutqunlikda 25 yilgacha yashaganlari ham maʼlum.

### Bilasizmi?

*Tulki nihoyatda ayyor va epchil hayvon. Yoʻlda toʻgʻri ketayotgan tulki it quvganida yoʻlni shunday chalkashtirib yuboradiki, hech qanday it uni topa olmaydi. Tulkining hid bilish va eshitish organlari juda yaxshi ishlasa-da, koʻzi uzoqni yaxshi koʻrmaydi. Suvda yaxshi suzadi va daraxtga chiqa oladi; xavf tugʻilganda katta-katta zovurlardan bir sakrashda oʻtib ketadi.*







## ITLAR

*Itlar* yirtqichlar turkumining itsimonlar oilasiga kiruvchi hayvonlarning bir turidir. Itlarning 300 dan ortiq zotlari bor. Ularga tozi itlar va buldog, ovcharka va senbernar, layka va kokker-spaneli, kolli va dogsimonlar, xonadonlarda boqiladigan laycha itlar va boshqalar kiradi. Ular bir-birini oson tushunadi va chatishib, avlod beradi, qiliqlari ham bir-biriga yaqin bo'ladi. Itlarning eng qadimgilari dogsimonlar, tozi itlar va ovcharkalardir.

Vazifasiga qarab bir necha guruhga ajratish mumkin. Xizmatda foydalaniladigan itlar, ovchi itlar va xonadonda boqiladigan hamda dekorativ itlar. Ovda foydalaniladigan tozi itlarning gavdasi va quloqlari uzun, juda tez yuguradi, o'ljani uzoqdan ko'radi va izma-iz quvib tutadi. Ingliz kokker-spanelilari suvda suzuvchi qushlarni tutishga moslashgan. Laykalar universal itlardir. Ular tayga o'rmonlarida mo'ynali hayvonlarni tutishga yordam beradi, lekin qushlar, los, ayiq kabi hayvonlarni ovlashda ham qo'l keladi. Ular sovuqqa juda chidamli bo'ladi—shimoliy rayonlarda laykalarni chanaga qo'shib yuk tashiladi.

Niyufaunlend—g'ovvos it, juda yaxshi suzadi, suvga cho'kayotganlarni qutqarish uning odatidir. Kolli—yaxshi cho'pon, podani tez to'playdi, chetga chiqqan hayvonlarni qaytarib keladi, lekin bo'ridan saqlay olmaydi. Chegara xizmati, o't o'chirish xizmati va qidiruv ishlarida, asosan, ovcharkalardan foydalaniladi. Ular baquvvat, chaqqon bo'lish bilan birga, hidni yaxshi sezadi, turli xil buyruqlarni bajarishga tez o'rganadi.





## SIRTLON

**Sirtlon** (giyena)—Afrika, Janubiy Osiyo va Kavkazortida tarqalgan. O'zbekistonda yo'lli sirtlon degan turi bor. Sirtlonning bo'yi 1—1,3 m, boshi katta, bo'yni yo'g'on, oyoqlari uzun, yelka va yon tomonlari och sariq, ko'krak va qorin tomoni oq, ustida qora yo'llari bo'ladi. Asosan tunda ov qiladi. Sahrolarda, chalasahrolarda va tog' etaklarida yashaydi. Yirik sutemizuvchilar va o'limtiklar bilan ovqatlanadi.

### Bilasizmi?

*Sirtlonning jag'i boshqa yirtqich hayvonlar sindira olmaydigan katta va yo'g'on suyaklarni ham sindiradi, go'sht bilan birga suyaklarni butunicha ham yutib yuboradi.*






## KOYOT

**Koyot** ko'kalamzor bo'risi ham deyiladi. Shimoliy Amerikaning g'arbiy tomonida — Kanadadan Meksikaga qadar tarqalgan. Ochiq ko'kalamzorlarda va tog' etaklarida yashaydi. Tumshug'i ingichka, qulog'i uchli, dumi uzun, mo'ynasi qalin, kulrang yoki sarg'ish bo'ladi, gavdasining uzunligi 1 m gacha yetadi. Quyon, ilonlar, qushlar, ba'zan mayda sutemizuvchi hayvonlarni ovlaydi.

### Bilasizmi?

*Koyotning erkagi bilan urg'ochisi bir umr birga yashaydi, bolalarini boqishda ham ikkalasi baravar ishtirok etadi. Koyot bo'rilar zotidan bo'lsa ham odamga tez o'rganadi, ba'zi hayvonot bog'larida odamlar qo'lidan ovqat ham yeydi. Koyot vahshiy bo'lsa ham, kemiruvchilarni ko'plab qirib, odamlarga foyda keltiradi.*







## AYIQ

Ba'zi ayiqlarning bo'yi uch metrga, og'irligi bir tonnaga yetadi. Ular Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikadagi tekislik va tog'lardagi qalin o'rmonlarda, bir turi esa Shimoliy Muz okeanidagi dengiz va muzliklarida yashaydi. Gavdasi katta, oyoqlari kuchli va besh barmoqli, barmoqlarida katta tirnoqlari bo'ladi. Dumi qisqa bo'lganligidan juni orasida ko'rinmaydi.


*Oq ayiq, qo'ng'ir ayiq, qora ayiq* kabi turlari bor. O'rta Osiyo va Kavkaz tog'laridagi o'rmonlarda, O'zbekiston tog'laridagi archazorlarda qo'ng'ir ayiq yashaydi. O'zbekiston sharoitida ayiqlar yanvar, fevral oylarida uyquda bo'ladi. Ayiqlar mayda sutemizuvchilar, qushlar va ularning tuxumlari, baliqlar (oq ayiq), turli xil o'simliklar, mevalar bilan ovqatlanadi. Qo'ng'ir ayiq 30—40 yil yashaydi. Himolay ayig'i qora ayiq ham deyiladi, asosan, Hindiston o'rmonlarida yashaydi. Qishda daraxt kovaklarini tozalab, ichiga kiradi va noyabrdan mart oyigacha o'tirib uxlaydi. Fevral oyida kovakda 3 tagacha bola tug'adi. Onasi ularni sut bilan boqadi.



### **Bilasizmi?**

*Ayiqlarning 40 tagacha tishi bo'ladi. Gavdasi katta va qo'pol bo'lsa ham tez yuguradi, daraxtga chiqishga, suvda suzishga va sakrashga juda mohir. Qo'ng'ir ayiq juda kuchli, hatto los kabi katta hayvonlarga ham hujum qilib, nobud qilishi mumkin. Oq ayiq muzda sirpanmaydi, chunki panjalarining tagi qalin jun bilan qoplangan. Qora ayiq yo'lbars, pantera bilan duch kelganda chetga chiqib turadi. Biror sabab bilan urushib qolganda yo'lbarsni ham yengishi mumkin.*











## YIRTQICH QUSHLAR


**Burgut, kalxat, tasqara, qoraqush, qirg'iy, lochin, ukki** va boshqalar yirtqich qushlar hisoblanadi. Ularning tirnoqlari uzun, o'tkir va qayrilgan bo'lib, o'ljasini tirnoqlari bilan ushlaydi va jonsizlantiradi. Tumshug'i bilan cho'qib, qismlarga bo'lib tashlaydi. Eng yirik yirtqich qushlardan biri burgut bo'lib, qanotlari yozilganda 2,5 metrga yetadi. U maydaroq umurtqali hayvonlarni ovlaydi. Burgut 5—6 kg vazndagi o'ljasini havoga ko'tarib keta oladi. Tog'lardagi baland qoyalarga, cho'llardagi tepaliklar va saksovulga uya quradi.

**Tasqara** ham o'lkamizda uchraydigan yirtqich qushlarning eng yirigidir. Tanasining uzunligi 1,5 m ga, qanotlarini yozganda kengligi 3 m gacha yetadi. Boshida va bo'ynida patlari juda siyrak bo'ladi. O'limtiklar bilan ovqatlanadi. Tirik hayvonlarga hujum qilmaydi.

**Ukki** tungi yirtqich qush bo'lib, tumshug'ining uchi qayrilgan, katta ko'zlari qorong'ida mayda narsalarni ham ko'ra oladi. O'ljasini o'tkir tirnoqlarini botirib nobud qiladi. Shitirlagan past ovozni ham eshitadi, boshining ustida quloqqa o'xshash ikki to'p patlari dikkayib turadi. Turli xil kemiruvchilar, kichikroq qushlar bilan ovqatlanadi.

**Boyo'g'li** — yapaloqqushlar oilasiga mansub yirtqich qush (boyqush ham deyiladi). Yevropa, Osiyo, Amerika va Afrikada tarqalgan. O'zbekistonda uy boyo'g'lisi uchraydi. Oyoqlari kuchli va paxmoq, tumshug'i qayrilgan, pati mayin, o'ljasini tovushsiz uchib kelib tutib oladi, ko'zlari o'tkir. Bahorda kechalari, ba'zan kunduzi ham sayraydi. Ovozi yig'lagan bolaning tovushiga o'xshaydi. Boyqush mayda kemiruvchilar, kaltakesaklar, hasharotlar va mayda qushlar bilan ovqatlanadi, zararkunanda kemiruvchilarni qirib, xo'jalikka foyda keltiradi.







## TIMSOHLAR

**Timsohlar** suvda va quruqlikda yashaydi, Afrika va Janubiy Amerikada keng tarqalgan, Osiyo va Avstraliyada ham uchraydi. Timsohlar tanasining uzunligi 10 m gacha boradi. Ular yaxshi suzadi va sho'ng'iydi. Suvda timsohlarni ko'rish qiyin, chunki tanasi suvga botib, ko'zlari va burun teshiklarigina suvdan chiqib turadi. Shu sababli suv ichishga kelgan yirik hayvonlarga sezdirmasdan yaqinlashadi va bir sakrab tutib oladi. Tutgan o'ljasini suv ostiga tortib ketadi. Lekin, asosan, baliqlar bilan ovqatlanadi. Qirg'oqda o'zi kovlagan chuqurga tuxum qo'yadi, tuxum qo'ygan joyidan uzoqqa ketmay muhofaza qilib turadi, bolalari tuxumdan chiqqach, ularni o'z og'zida olib borib suvga qo'yib yuboradi.

### Bilasizmi?

*Timsoh terisi juda yuqori baholanadi, ulardan chiroyli portfel, sumka va oyoq kiyimlar tayyorlanadi. Timsohlar yirik o'ljasini suvga cho'ktirib o'ldirgach, qirg'oqqa sudrab chiqadi va baquvvat jag'lari hamda oldingi oyoqlari yordamida bo'laklarga bo'lib tashlaydi, shundan keyin yirik bo'laklarni ham yutib yuboraveradi.*







## YIRTQICH BALIQLAR

**Akulalar** faqat hayvonlar go'shti bilan ovqatlanadi. Akulalarning juda ko'p turlari bor. Ulardan eng yirigi kitsimon akula deyiladi. Uning bo'yi 20 metrga yetadi va faqat shu turigina plankton bilan ovqatlanadi. Akulalar gavdasi suyri bo'lgani sababli tez suzadi. Ularning ko'pchiligi yirik o'lja ovlaydi, suvning tebranishiga va hidga qarab o'ljasi qayerdaligini tez aniqlaydi. Yo'lbarssimon akula va oq akula odam uchun eng xavflidir. Oq akulaning og'irligi 22 tonnagacha boradi, lekin yiriklarining tishi mayda, o'rtacha akulalarning tishi yirik bo'ladi. Akula hujum qilganda uchburchaksimon baquvvat tishlarini o'ljaga botiradi. Iliq suvli dengiz va okeanlarda yashaydi. Asosan baliqlar va suv hayvonlari bilan ovqatlanadi. Och qolganda qirg'oqda cho'milayotgan odamlarga va suv ichayotgan yirik hayvonlarga ham hujum qiladi.

### Bilasizmi?

*Akulalar tiriktug'ar baliqlardir. Yangi tug'ilgan akulaning bo'yi 15—50 sm bo'ladi. Oq akulaning ko'zi shunday joylashganki, bir vaqtning o'zida barcha yo'nalishlarni ko'ra oladi. Yirik akulaning og'ziga bir necha kishi sig'ishi mumkin. U bo'yi 2 metrgacha bo'lgan baliqlarni butunligicha yutib yuboradi.*









**Dengiz iblisi**—yirtqich baliqlarning 50—200 m chuqurlikda yashaydigan turi. Barenis dengizidan Qora dengizgacha tarqalgan. Uzunligi 1,5 m, og'irligi 20 kg dan ortiq bo'ladi. Yirik yassi boshi gavdasining yarmidan ko'pini tashkil etadi. Og'zida o'tkir tishlari bor. Boshining tepasida shu'lalanuvchi o'simtasi bo'lib, u boshqa baliqlar, mayda akulalar va qisqichbaqalarni o'ziga jalb qiladi. Ular yaqinlashgach, bir zumda og'ziga tortib, yutib yuboradi.

**Cho'rtanbaliq**—tanasi cho'zinchoq, boshi katta, tumshug'i juda cho'ziq va yassilanib ketgan yirtqich baliq. Ko'pincha ko'llarda va daryolarning qayir joylarida, o'simliklar orasida yashaydi. Okun, qizilko'z, karp va boshqa baliqlar bilan ovqatlanadi. Uzunligi 1,5 m gacha, og'irligi 35 kg va undan ko'p bo'ladi. Tanasining usti qora, qorni oqish, toq suzgich qanotlari qizg'ish-qo'ng'ir, juft suzgich qanotlari sariq-qizil bo'ladi. Pastki jag'ida katta-kichik tishlari bor, o'ljani shu tishlari bilan ushlab oladi. O'zbekistonda Amudaryoning qirg'oq bo'yidagi ko'llarda, Chinoz yaqinidagi ko'llarda va Orol dengizida ko'p uchraydi. O'ljasini bosh tomonidan yutadi.

### **B**ilasizmi?

*Cho'rtanbaliqning pastki jag'idagi qoziq tishlari yonida yumshoq to'qima ostida 2—4 ta yordamchi tishlari bo'ladi. Qoziq tishlar ishdan chiqqanda yordamchi tishlar ularning o'rmini oladi, bu tishlar avval qimirlab turib, keyin mustahkamlanib ketadi. Shu zaylda qoziq tishlar almashinib turadi. Og'iz bo'shlig'idagi boshqa tishlari o'ljani yutishga xalaqit bermasligi uchun uchi halqumga yo'nalgan holda shilliq qavat ostida turadi. Agar o'lja og'zidan chiqib ketishga harakat qilsa, bu tishlar shilliq qavatdan bir zumda ko'tariladi va minglab ignalar kabi o'ljaga botiriladi.*





## HAYVONOT OLAMIGA SAYOHAT




# PRIMATLAR — MAYMUNLAR



Maymunlar dastlab paydo bo'lgan va yuksak darajada tuzilgan sutemizuvchilar bo'lganligi uchun ham primatlar deb atalgan, primat so'zi—birinchilik, ustunlik degan ma'noni bildiradi. Ular hasharotxo'r hayvonlardan kelib chiqqan, deb taxmin qilinadi. Primatlarning 200 dan ortiq turi bor. Ular chalamaymunlar deyiladigan kenja turkum bilan maymunlar deyiladigan yuqori turkumga ajratiladi. Chalamaymunlar hasharotxo'rlar bilan maymunlar o'rtasida oraliq holatni egallaydi, deyish mumkin. Afrikada, Madagaskarda va Janubi-sharqiy Osiyoda yashaydigan bunday chalamaymunlarga tupaysimonlar, lemupidlar, indrividlar, martishkasimonlar, pabianlar, uzunkaftlilar va boshqalar kiradi. Yuksak tuzilgan maymunlarga gibbonlar, makakkilar singari uzun dumli maymunlar hamda gorilla, shimpanze, orangutan kabi ancha yirik, dumsiz, odamsimon maymunlar kiradi. Yuksak primatlarda bosh barmog'i qolgan to'rtta barmog'iga qarama-qarshi joylashgan, bu hol daraxt shoxlarini mahkam ushlab turishdan tashqari terisi va yunlarini turli iflosliklardan, parazitlardan tozalashda yordam beradi. Yuksak primatlarning yana bir muhim xususiyati—ular o'tirishi, tik turishi va ikki oyog'ida anchagina masofaga vertikal holatda yurib borishi mumkin. Olimlar maymunlarning tuzilishi jihatidagina emas, balki turli xil kasalliklarga chalinishi jihatidan ham odamga o'xshashligini aniqlaganlar. Deyarli barcha maymunlar kunduzgi, tupay, lemur kabilardan boshqa chalamaymunlar esa tungi hayot kechiradilar. Primatlar Janubiy va Markaziy Amerika, Afrika va Osiyoning tropik hamda subtropik o'rmonlarida poda, ba'zan juft bo'lib yashaydi. O'simliklar, hasharotlar, sudralib yuruvchilar, qushlar bilan ovqatlanadi. Ayrim makakkilar va pavianlar o't bilan qoplangan savannalarda va qoyalarda yashaydi, lekin ularning ko'pchiligi daraxtlarda tunaydi. Gorillalar, ba'zi tupaylar ham yerda yashaydi. Eng kichik maymun—sichqonsimon leurning uzunligi dumini hisoblamaganda 12—13 santimetr, og'irligi 45—48 gramm keladi. Eng katta maymun—gorilla. Uning bo'yi 2 metrdan uzun, qulochi 3 metrga yetadi, og'irligi 200—350 kilogramm keladi. Amerika qit'asida yashaydigan maymunlarning burun kataklari keng, dumi uzun bo'ladi, shu sababli ular keng burunli maymunlar ham deyiladi. Afrikada va Janubiy Osiyoda yashaydigan maymunlar tor burunli bo'ladi, ular daraxt shoxlariga oyoq va qo'llari bilan osilib yuradi, bunda dumi hech qanday yordam bermaydi. Ko'pchilik maymunlar tuzilishiga ko'ra odamga yaqin bo'lgani sababli xulq-atvori, xatti-harakati va yashash tarzi yaxshi o'rganilgan.





## GORILLALAR

**Gorillalar** odamsimon maymunlarning eng yirigi bo'lib, erkagi tanasining uzunligi ikki metrgacha, og'irligi 270—280 kg gacha bo'lishi mumkin. Boshi katta, bo'yni qisqa va yo'g'on, ko'krakdor, qo'llari oyoqlaridan uzun, ko'zlari chuqur joylashgan, gavdasi malla va oq-qoramtir jun bilan qoplangan bo'ladi. Markaziy Afrikaning tropik o'rmonlarida va tog'li yerlarida tarqalgan. Gavdasi yirikligi sababli, asosan yerda yashaydi va ovqatlanadi. O'simliklarning hamma qismini — ildizidan tortib mevasigacha yeyaveradi. Go'sht yemaydi. 5 tadan 30 tagacha bir oila bo'lib, kuchli erkagi boshchiligida yashaydi. To'rt yilda bittadan bola tug'adi. Gorillalar gavdasi yirik va tashqi ko'rinishi qahrli bo'lgani bilan ancha beozor hayvon. U odam tugul hayvonlarga ham hujum qilmaydi. Uyasiga yoki bolasiga odam yaqinlashsa u o'qrayib qaraydi va ko'kragiga urib qattiq baqiradi, so'ngra yo'lidagi hamma narsani payhon qilib yuguradi va odam yonidan o'tib ketadi, lekin tegmaydi. U qoplondan (leoparddan) boshqa hayvonlardan qo'rqmaydi. Tunda erkaklari yerda, urg'ochilari va bolalari daraxtda uxlaydi. Gorillalar 40—50 yil yashaydi.

### **Bilasizmi?**

*Gorillalar suv ichmaydi, ular yegan o'simliklarning shirasi chanqog'ini hostirish uchun yetarlidir. Ular umuman suvga tushmaydi, kichik ariqdan ham sakrab o'tadi yoki daraxtni ag'darib ko'prik yasab, uning ustidan yurib o'tadi. Gorillalar tepaga qarab, qo'llarini boshi ostiga qo'yib uxlaydi, erta bilan uyg'ongach kerishadi, esnaydi va dam olib o'tiradi. Bu jihatlari bilan ham odamga juda o'xshab ketadi.*





## SHIMPANZE

*Shimpanze* ham odamsimon maymunlar qatoriga kiradi. Voyaga yetgan erkagining og'irligi 70 kg atrofida, bo'yi 130 santimetrغا yetadi. Shimpanze Afrikaning namlik ko'p bo'ladigan tropik o'rmonlarida, shuningdek, ularga tutash bo'lgan Serra-Lesne bilan Tanzaniya oralig'idagi joylarda yashaydi. Mevalar, yong'oqlar, daraxt barglari bilan ovqatlanadi, ba'zan go'sht yeyishdan ham qaytmaydi. Qo'llari oyoqlariga nisbatan uzun, barmoqlari orasida teri parda bo'ladi. Yuz terisi, oyoq va qo'l yuzasi serajin, juni to'q rangli, iyagida oq tuklar o'sgan bo'ladi. 30—50 maymundan iborat jamoa bo'lib yashaydi. Ovqatni jamoa 3—4 guruhga bo'linib izlaydi va mo'l ovqat topilganda guruhlar bir-biriga xabar beradi. 3—4 yilda bitta bola tug'adi. Bolani to'dadagi maymunlarning hammasi himoya qiladi. Maboda qoplon hujum qilsa, ular yog'och kaltak bilan qoplonni haydashga harakat qiladilar. Shimpanze taxminan 60 yil yashaydi. Tutqunlikda ularni ayrim harakatlarga o'rgatish mumkin.

### Bilasizmi?

*Ba'zan kichik hayvonlarni tutib olgan shimpanze go'sht ta'miga o'rganib qoladi va keyin o'lja izlay boshlaydi, hatto to'dadan ajralib qolgan yosh pavianlarni tutib olishi mumkin. U o'ljani daraxtga olib chiqib ketadi, buni ko'rib qolgan boshqa shimpanzalar qo'llarini yuqoriga cho'zib, go'shtdan ozroq berishni so'raydilar. O'ljaning egasi bo'lgan shimpanze o'ljadan go'sht bo'laklarini uzib, so'ragan barcha maymunlarga tarqatadi. Shimpanzalar bir-birlarini uzoq vaqt ko'rmagan bo'lsalar, uchrashganlarida odamlarga o'xshash qo'l cho'zib, engashib yoki bir-birlarini quchoqlab ko'rishadilar.*







## ORANGUTAN

**Orangutanlar** odamsimon maymunlarning Osiyoda yashaydigan turlaridan biri (ikkinchi turi—gubbonlar), Kalimantan va Sumatra orollarining nam tropik o‘rmonlarida yashaydi. Erkagining bo‘yi 135 santimetrgacha, og‘irligi 130 kilogrammgacha boradi. Qo‘llari oyoqlaridan uzun — qulochi ikki yarim metrga yetadi, zang rangidagi junlari paxmaygan, tutam-tutam bo‘lib, osilib tushgan bo‘ladi. Yuzi dumaloq, tomog‘ida havo yig‘iladigan xaltachasi bor, qorni katta. Xaltachada to‘plangan havo ovozni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Orangutanlar, asosan, yakka-yakka bo‘lib, yoki onasi bir- ikkita bolasi bilan birga yashaydi. Go‘sht yemaydi, asosan, o‘simlik mahsulotlari bilan ovqatlanadi, daraxtlarda yashaydi. «Orangutan»— «O‘rmon odami» degan ma‘noni bildiradi. Mo‘ylovi va soqollari, dumi va o‘tirgich qadoqlarining yo‘qligi odamnikiga juda o‘xshaydi. Qo‘llarini, mox va arxideyalarni suvga botirib, so‘ngra ularni so‘radi, shu yo‘l bilan chanqog‘ini qondiradi. O‘ttiz yilcha yashaydi, 4—5 yilda bitta bola tug‘adi.

### Bilasizmi?

*Shoxga osilib tebranish va shoxdan shoxga sakrash orangutanlar uchun tug‘ma qobiliyat emas, buni ularga onasi o‘rgatadi. Onasi bolasini to‘rt yoshgacha sut bilan boqadi, to‘rt yoshidan boshlab turli o‘simlik mahsulotlarini topib yeyishga, daraxtlarda yurishga va boshqa harakatlarga o‘rganadi. Bolasi 10 yoshida voyaga yetadi. Orangutanlar ozo-dalikni yaxshi ko‘radi. Myunxen hayvonot bog‘ida qafasdagi orangutan ovqat qoldiqlari va boshqa narsalarni supurib, oqar suvga tushirib yuborganligini bir necha bor kuzatishgan. Yangi tug‘ilgan orangutan bolasi nafas olmay qolganda onasi uni yerga yotqizib, tilini tortadi va og‘ziga puflab, sun‘iy nafas oldiradi.*









## GIBBONLAR

**Gibbonlar** qo'llari oyoqlariga qaraganda nihoyatda uzunligi (oyog'ida tik turganda qo'llari yergacha yetadi), gavdasining kichikligi, harakatlanish usuli jihatdan odamsimon maymunlardan katta farq qiladi, ularni „butoqlarda yuruvchi maymunlar“ deyishadi. Gibbonning bo'yi 1 m cha, og'irligi 8—9 kg kelsa ham, juni qalinligi tufayli ancha yirik ko'rinadi. Ularning dumbasida tos suyagi bilan qo'shilib ketgan qattiq yostiqliklari bo'ladi, shox-butoqlarda o'tirib uxlaganida shu „qadoqlar“ yordam beradi. Gibbonlar Janubi-sharqiy Osiyoning nam tropik o'rmonlarida va Malaya arxipelagi orollari—Sumatra, Yava va Kalimantan orollarida oila-oila bo'lib yashaydi. Mevalar, yosh novda, turli hasharotlar, qushlar va ularning tuxumlari bilan ovqatlanadi. Ular har yili bolalaydi, 30 yilgacha yashaydi. Gibbonlar daraxtdan daraxtga yaxshi sakraydi, go'yo uchadi, uchib ketayotganda yaqin butoqlardagi mevalarni uzib oladi, hatto qushlarni ham tutishi mumkin. Ular juda baland shoxlarda ham ikki oyoqlab chopishi mumkin, erkagining rangi ko'pincha qora, urg'ochisi turli rangda bo'ladi.

### Bilasizmi?

*Gibbonlarning qo'li juda kuchli bo'ladi. Uning og'irligi 8 kg bo'lishiga qaramay, bir qo'li bilan panjarani ushlab, ikkinchi qo'li bilan katta odamni sudrashi mumkin.*

*Gibbonlar daraxt uchida o'tirib xirgoyi qilishni juda yaxshi ko'rishadi. Ayniqsa, urg'ochilari erta tongda bir bo'lib konsert berishadi. Ularga yonidagi hududda yashaydigan urg'ochilari ham qo'shilishadi, ular yagona haqiqiy qo'shiqchi hayvonlardir.*





## MARTISHKALAR

**Martishkalar** Afrika o‘rmonlarida yashaydigan maymunlarning eng kichigi (bo‘yi 50—60 sm, og‘irligi 10 kg gacha) va ko‘p tarqalganidir. Ularning dumi uzun, yuzi kichkina va dumaloq, oyoqlari qo‘llaridan ancha uzun, junlari qora, kulrang, ko‘kragi, burni, mo‘ylov va soqollari oq bo‘ladi. Odatda, daraxtlarda, ba‘zan savannalarda, suvga yaqin joyda yashaydi. Martishkalar to‘da, oila bo‘lib, ba‘zan boshqa maymunlar bilan birga yashaydi, lekin pavian va shimpanzelardan uzoqda bo‘ladi. Martishkalar o‘rmon mevalari, o‘simliklarning ildizi, hasharotlar, mayda qushlar, kaltakesaklar, qurbaqalar bilan ovqatlanadi.

Martishkalar har xil rangda bo‘ladi. Ular 25 yilgacha yashaydi.

### **Bilasizmi?**

*Faqat o‘rmonlarda emas, ochiq savannada yashaydigan martishkalar ham bor. Ularning bir turi patas (qizil gusar ham deyiladi) jahonda eng tez yuguradigan maymundir. Gavda tuzilishi ovcharka itlarnikiga o‘xshaydi. 15 tagacha maymunga boshchilik qiladigan bitta erkagi doimo tevarak-atrofni nazorat qilib turadi, xayf tug‘ilishi bilan ohista ovoz chiqaradi va to‘da darhol yashirinadi, erkagi esa maymunlar yashiringan tomondan boshqa tomonga chopib, hujum qiluvchini chalg‘itadi.*






## PAVIANLAR

*Pavianlar* odamlar va odamsimon maymunlardan keyin eng yirik primatlardir: ularning bo‘yi bir metrga bo‘radi; og‘irligi 40 kilogrammdan ortadi. Pavianlar Afrikada va Arabiston yarim orolining janubi-g‘arbida o‘rmonlarda, ba‘zilari ochiq yerda yashaydi. O‘tlar, ularning urug‘i, ildizlari, tuganaklari, mevalari, mayda umurtqali jonivorlar bilan ovqatlanadi. Ba‘zan quyonlar, kiyik bolalari, martishkalarni ham tutib yeyaveradi. Ularning asosiy dushmani qurolli odam, arslon va qoplondir. Pavianlarning erkagi qoplon bilan yakkama-yakka olishuvga ham chiqaveradi. Ularning *gamadril*, *babuinlar* deb ataladigan turlari bor. Pavianlar odatda ko‘proq yerda yuradi, kamdan kam hollarda, zarur bo‘lgandagina daraxtdan daraxtga sakraydi. Bitta bola tug‘adi, bolasi 3—4 yoshida voyaga yetadi.

### Bilasizmi?

*Pavianlar bir joydan ikkinchi joyga ko‘chayotganda qat‘iy tartibga rioya qiladilar: to‘da boshida yosh erkak maymunlar, o‘rtada ona maymun bolalari bilan va to‘da boshlig‘i, orqada bir necha erkak maymunlar, yon tomonlarida, odatda, tevarakat-rofni kuzatuvchi erkak maymunlar boradi. Gamadril deyiladigan pavianlar to‘dada birinchilikni talashadigan bo‘lsalar, og‘izlarini katta ochib, tishlarini ko‘rsatadilar. Kimning qoziq tishlari katta va uzun bo‘lsa, qolgan erkak maymunlar unga bo‘ysunadilar va jangsiz taslim bo‘ladilar.*







## LEMURLAR

**Lemurlar** chalamaymunlar oilasiga mansub hayvon. Ko'zi va quloqlari katta, oyoq va qo'l barmoqlari daraxtda yurishga moslashgan. Afrikaning tropik o'rmonlari, Madagaskar oroli, Janubi-g'arbiy Osiyo, Shri-Lanka va Zond orollarida keng tarqalgan. Bo'yi 15 santimetrdan 80 sm gacha boradi. Madagaskar orolida yashaydiganlari haqiqiy lemurlar bo'lib, uzun dumli, chaqqon harakat qiladigan, bo'yi ham kattaroq bo'ladi. Boshqa joylarda tarqalganlari lemursimon lori maymunlardir. Ularning dumi bo'lmaydi, juda sekin harakatlanadi, rangi sarg'ish-kulrang yoki qo'ng'ir, yurishi xameleonga o'xshaydi, hech qachon yerga tushmaydi, tunda boyo'g'li kabi yaxshi ko'radi. Lori mevalar, barglar, hasharotlar, kaltakesaklar, mayda qushlar va ularning tuxumlari bilan ovqatlanadi, yiliga bitta-ikkita bolalaydi. Madagaskar lemurlarining hammasida bir xil rangdagi, uzun, qora-oq halqali dumi bo'ladi. Daraxtda ham, yerda ham yashaydi. Erkagi ko'pincha qora rangli, urg'ochilari kulrang bo'ladi. Sakkiz metr uzoqlikka, uch metr balandlikka sakray oladi. Urg'ochisi bolalash oldidan o'zining junini yulib, uya yasaydi. Yangi tug'ilgan bolasi onasining qorniga yopishib yuradi.

### Bilasizmi?

*Lemurlarga yirtqich qushlar hujum qilganida ular daraxtning uchidan pastga qarab o'qday otiladi va yerga tushib, o't-o'lanlar orasiga yashirinadi, so'ngra boshqa daraxtga chiqib ketadi.*

*Sichqon lemur deyiladigan lemur maymunlarning eng kichigidir. Uning dumi bilan birgalikdagi uzunligi 25 sm, og'irligi 50—80 gramm keladi.*





**HAYVONOT OLAMIGA SAYOHAT**



# O'TXO'R HAYVONLAR



*Asosan, o'simliklar bilan oziqlanadigan hayvonlar o'txo'r hayvonlar deyiladi. O'txo'r hayvonlarning tabiatda ham, kishilar hayotida ham ahamiyati nihoyatda katta. Ular o'simlik xomashyosini hayot uchun juda ahamiyatli bo'lgan tayyor oqsil moddalarga aylantirib beradigan «tirik fabrikalar»dir. Tabiatdagi ko'pchilik yirtqich hayvonlar yashashi uchun deyarli barcha zarur moddalarni o'txo'r hayvonlar orqali oladi. Odamlar ham hayot kechirishi uchun oziq-ovqat muhsulotlarini va kiyim-kechaklarni o'txo'r hayvonlar mahsulotidan tayyorlaydilar. Shu sababli barcha hayvonlar qatori o'txo'r hayvonlarni ham asrash, ko'paytirish har birimizning muqaddas burchimizdir.*










## FILLAR

**Fil** quruqlikda yashaydigan o'txo'r hayvonlarning eng yirigi bo'lib, vazni 4—5 tonna keladi. Filning yuqori labi va burni xartumga aylangan. Fil ovqatni ham, suvni ham xartumi bilan olib, og'ziga soladi. Xartumi bilan bir tonnagacha yukni ko'tara oladi. Og'ir yuk bilan o'tib bo'lmas changalzorlar, botqoqliklar va tog'lardan bemalol o'tib ketadi. Yuqori jag'idagi kurak tishlari juda uzun bo'lib, og'zining ikki chekkasidan chiqib turadi. Shu tishlari bilan o'zini dushmandan muhofaza etadi, daraxtning po'stlog'ini shiladi va yer kovlaydi. Fil barmoqlarining uchi tuyoq bilan tugallanadi. Har qaysi jag'ida 6 tadan tishi bo'ladi. Bu tishlar 6—7 yilda yemirilib tushib, o'rniga boshqasi chiqadi. O'simlik shox-shabballari, bargi, mevasi, kurtaklari va boshqalar bilan ovqatlanadi. Bir kunda 100 kg dan oshiq ovqat yeydi. Asosan, Afrika va Hindistonda poda bo'lib yashaydi. Podaga eng yirik erkak fil boshchilik qiladi, 70 — 80 yil yashaydi.

### Bilasizmi?

*Afrika filning eng yirik erkagining bo'yi 4 metrgacha, og'irligi 7 tonnagacha yetadi, urg'ochisi 2 tonnagacha bo'ladi. Hind fillarining bo'yi 3 metrgacha, og'irligi 5 tonnagacha keladi. Afrika fili qulog'ining suprasi 2,5 metrga yetadi. Fillar cho'milishni, suzishni va sho'ng'ishni juda yaxshi ko'radi. Agar bunga loyiq suv havzalari bo'lmasa, xartumida suv olib ustiga sepadi. Fil 2 yil homilador bo'lib yurib, faqat bitta bola tug'adi. Yangi tug'ilgan bolasining og'irligi 90kg gacha, bo'yi 1 m gacha bo'ladi. «Fil suyagi» deganda fil og'zining ikki chekkasidan chiqib turadigan tishlari tushuniladi, ularning uzunligi 2,5 m ga qadar bo'ladi.*








## JIRAFALAR

**Jirafa** Yer kurrasidagi bo'yi eng baland (5—6 m) hayvon hisoblanadi, og'irligi 1 tonnacha keladi. Afrikada yashaydi, terisi to'q jigarrang xollar bilan qoplangan. Uning uzun bo'yni va ingichka uzun oyoqlari eng baland daraxtlar uchidagi barglarni ham uzib olishga imkon beradi. Asosan, akatsiyaning barg va novdalari bilan ovqatlanadi. Kam suv ichadi. Suv ichayotganda oldingi oyoqlarini kerib turadi, bo'lmasa boshi suvga yetmaydi-da. Ular 10—12 tadan pada bo'lib yashaydi. Boshida teri bilan qoplangan 2—5 ta kalta suyak shoxlari bor.

### Bilassizmi?

*Jirafalar bo'yni bilan urib yoki oyog'i bilan tepib, hatto arslonni ham o'ldirishi mumkin. Jirafalar soatiga 45—50 km tezlik bilan yugura oladi. Yirik jirafalarning vazni 1 tonnagacha va undan ortiq bo'ladi, har bir qadami 4—5 m keladi. Jirafalar ham yerda yotib uxlaydi. Bunda uzun bo'ynini yoy shaklida bukib, sag'risiga qo'yadi va shu holicha uxlaydi*








## ZEBRALAR

**Zebralar**, asosan, Afrikada tarqalgan yovvoyi otlar bo'lib, ularning 3 turi bor: tog' zebrasi, cho'l zebrasi va savanna zebrasi. Zebraning tanasi ko'ndalangiga oq va qora yo'l-yo'l teri bilan qoplangan. Ular 10—15 tadan iborat pada bo'lib yashaydi. Podaga 5 yoshdan katta erkak zebra boshchilik qiladi. Yirik zebra (cho'l zebrasi) tanasining uzunligi 2,5 metrga, balandligi 1,5 metrga yetadi. Dushmanidan o'zini tishi va oyoqlari yordamida himoya qiladi. Dumining uzunligi 45—55 sm ga yetib, uchida uzun jun popuklari bo'ladi. Zebralar, asosan, o'simliklar bilan ovqatlanadi.

### Bilasizmi?

*Zebralar 3 yoshga yetgandan keyin bolalaydi. Yangi tug'ilgan bolasi 1 soatdan keyin sakrab yuraveradi. Tog' zebrasi 2 ming metrga qadar tepalikka ko'tarila oladi. Zebralar ba'zan sherni ham tepib nobud qiladi, soatiga 50 km tezlik bilan yugura oladi.*







## PRJEVALSKIY OTI

*Prjevalskiy oti* — yovvoyi ot hisoblanadi. Markaziy Osiyoda tarqalgan, Shimoli-g'arbiy Xitoy va Mo'g'ulistonda uchraydi. Ayg'irining bo'yi 120—130 sm, gavda uzunligi 230 sm cha, biyasi esa kichikroq bo'ladi. Yoli qisqa, tusi jigarrang-sariq, 5—10 tadan uyur bo'lib yashaydi, sahro o'simliklari bilan ovqatlanadi. Juda hurkovich, uzoqdan ko'radi va eshitadi. Suv ichishga va o'tlashga tunda boradi. Uni birinchi marta 1879- yilda rus sayyohi N.M. Prjevalskiy uchratgan, shu sababli uning nomi bilan ataladi.

Otlar taxminan 6 ming yil avval Mo'g'ulistonda va Qozog'istonda xonakilashtirilgan. So'ngra ularni bir-biriga chatishtirib, turli ot zotlari olingan. Og'ir yuk tashuvchi Vladimir oti, poygachi arab oti, ingliz chopqir oti, axaltekini zotli chopqir ot, Orlov yo'rtoqi oti shular jumlasidandir.

## QULONLAR

*Qulon* yovvoyi eshaklarning Osiyoda yashaydigan bir turi, ba'zilar uni jaydari otning bir turi deydilar. Suriya, Eron, Afg'oniston, Mo'g'uliston va Turkmanistonda uchraydi. Oyoqlari uzun, o'zi xipcha, gavadasining uzunligi 2,1 metrga, balandligi 1,2 metrga, og'irligi 120—125 kg gacha yetadi. Qulog'i otnikidan katta, eshaknikidan kichikroq, terisi qumrang-sariq bo'ladi. Cho'l va sahrolarda poda bo'lib yashaydi, suv axtarib ko'chib yuradi, dukkakli o'simliklar, shuvoq, sho'ra kabi o't-o'simliklar bilan ovqatlanadi. Qulonlar go'shti va terisi uchun ov qilinadi. Afrika eshaklari ham qulonlar jumlasiga kiradi.

### Bilasizmi?

*Qulonlar yerda yugurishda kiyikdan, tog'ga chiqishda yovvoyi echkidan qolishmaydi. Qulonlar ob-havo o'zgarishini 10—12 soat oldin sezadi, qor bo'roni bo'lishidan bir kun avval yashirini oladi. Qulonlarda ko'rish, eshitish va hid sezish juda kuchli rivojlangan. Qulon 1,5—2 km narida o'ziga tomon kelayotgan jonzotni darhol sezadi.*









## KARKIDONLAR

**Karkidonlar** Afrika va Janubi-sharqiy Osiyoda tarqalgan, tropik o'rmonlar, cho'llar, chakalakzorlar, botqoqlik va tog'larda ko'pincha yakka-yakka yashaydigan yirik o'txo'r hayvon hisoblanadi. Uning gavdasining uzunligi 5 m gacha, balandligi 2 m gacha, vazni 3,5 tonnagacha bo'ladi. Boshining tepasida, burun va manglay suyagining ustida bitta yoki ketma-ket o'rnashgan ikkita shoxi bor. Bu shoxlar karkidonning asosiy muhofaza organidir. U kunduzi dam olib, tunda turli o'simliklar bilan ovqatlanadi.

Afrika karkidoni (qora va oq), Hind karkidoni, Sumatra karkidoni kabi turlari bor. Afrika karkidonining qora karkidon va oq karkidon deyiladigan turlari bor. Oq karkidon terisi kulrang tusda bo'ladi, lekin uzoqdan oq bo'lib ko'rinadi.

### Bilasizmi?

*Karkidon bolasi ona qornida 500—550 kun rivojlanadi. Katta karkidon terisiga yirtqich hayvonlarning tishi o'tmaydi, aksincha, karkidon shoxi bilan hatto arslonni ham nobud qilishi mumkin. Karkidon qo'pol va og'ir bo'lishiga qaramay, 35—40 km/soat tezlik bilan yugura oladi, katta-katta zovurlardan hatlab o'tib ketadi.*







## YOVOYI HO'KIZLAR

Yovvoyi ho'kizlarga *bizon, zubr, qo'tos, buyvol* va boshqalar kiradi. Bizon Shimoliy Amerika cho'llarida pada bo'lib yashaydigan hayvon. Gavdasining uzunligi 3 m, dumi 50 sm ga, bo'yi 2 m ga yaqin, vazni 1 tonnagacha bo'ladi. Yelkasida kichikroq o'rkachi bor, usti qoramtir yumshoq jun bilan qoplangan, shoxi kalta, tepaga qarab o'sgan. Bizon qo'lga tez o'rganadi. Zubr bizonga o'xshaydi, tanasi yo'g'on, boshi katta, ko'zi kosasidan irg'ib chiqqan va yelkasida o'rkachi bor. Gavdasining oldingi qismini qoplagan uzun va qalin juni iyagining ostida soqol, bo'ynida yol hosil qiladi. Shoxi tepaga qayrilgan. Qo'tos, asosan, baland tog'larda yashaydi, gavdasi katta, serjun, baquvvat, tanasi yo'g'on, bo'yni qisqa, oyoqlari kuchli va tuyoqlari katta bo'ladi, issiqni uncha yoqtirmaydi. Buyvollar Hindistonda, Osiyoda, Afrikada yashaydi. Kunduzi, asosan, dam olib, kechasi o'tlaydi, suvni yoqtiradi, kuniga 6—8 soat vaqtini suvda suzib va cho'milib o'tkazadi.

### Bilasizmi?

*Yovvoyi ho'kizlar dushmanidan, asosan, arslon va timsohlardan to'da bo'lib va alohida himoyalanaadi. Suv ichgani kelgan yovvoyi ho'kizlar va buyvollarni timsohlar to'da bo'lib ovlashga harakat qiladi. Yosh ho'kizning oyog'iga yopishgan timsoh uni suvga sudraydi. Bu holat ba'zan timsohlar uchun achinarli tugaydi. Chunki shu payt baquvvat boshqa ho'kiz unga yordamga keladi va kuchli oyoqlari bilan uni shunday tepadiki, timsohning jag'i yorilib ketadi. Yovvoyi ho'kizlar 50—60 km/soat tezlik bilan yugura oladi. Zubrlar hatto balandligi 2 m li devordan sakrab o'ta oladi.*







## LOS VA ANTILOPA

Siz bug'ularning insonga sadoqati haqida ko'p eshitgansiz. **Los** ana shu bug'ular oilasiga kiradi. Biroq u bug'ulardan ancha katta bo'lib, bo'yi 2 m dan ortadi, uzunligi esa 3 m ga yetadi. Quloqlari uzun, dumi kalta, rangi qishda qo'ng'ir, yozda qora bo'ladi. Erkagi shoxli, urg'ochisining shoxi bo'lmaydi. Osiyo, Yevropa va Amerika o'rmon zonasida, ko'l va botqoqlilari bo'lgan o'rmonlarda yashaydi. Loslar katta-katta daryolardan bemalol suzib o'tadi, soatiga 50—60 km gacha tezlik bilan yugura oladi. Asosan, o'simlik bargi, novdasi va lishayniklar bilan ovqatlanadi. Qo'lga yaxshi o'rganadi.

### **B**ilasizmi?

*Los 500 m uzoqdan ovchining hidini sezadi. Dushmanlaridan oldingi oyoqlari bilan himoyalanaadi. Los oldingi oyoqlari bilan tepib hatto ayiqni o'ldirgan hollar ham ma'lum. Losning suti sigir sutidan 3—4 marta yog'li va tarkibida oqsillar sigir sutidagidan 5 marta ko'p bo'ladi.*



**Antilopa—kiyiklarning** bir turi. Asosan, Sharqiy Afrikada tarqalgan. Bir necha turlari bor. Eng yirik zangori antilopaning bo'yi 1,5 m ga, vazni 270—280 kg ga yetadi. Poda bo'lib yashaydi. Erkagida ham, urg'ochisida ham shoxi bo'ladi. Bu antilopa gnu deyiladi, yelkasida yoli, dumining anchagina qismida jun bo'ladi. Antilopa gnu savannada yashaydi, o'tlarni tanlab yeydi, shu sababli o't yetishmaganda yoki qurg'oqchilikda uzoq yerlarga ko'chib o'tadi.

**Kanna** antilopasi vintsimon shoxli bo'lib, yirik ho'kizdek keladi. Bo'yi 1,8 m cha, og'irligi 800—900 kg keladi. Bu antilopa uzoq vaqt suv ichmay ham yura oladi.





## BUG'ULAR

Bug'ular juda chiroyli, ixcham va shoxdor hayvon bo'lib, ularning bir necha turlari bor. Deyarli barcha zonalarda bug'ularning biror turi uchraydi. Turli xil o'tlar, o'simliklar bilan ovqatlanadi.

**Asl bug'ular** tayganing janubidan boshlab, janubiy subtropik o'rmonlargacha bo'lgan joylarda yashaydi. Katta yoshli urg'ochisi va bolalaridan iborat 4—6 tadan to'da bo'lib yashaydi. Qishda to'daga erkagi ham kiradi. Qo'shilish vaqti kelganda erkagi boshini orqaga tashlab, qattiq bo'kiradi, shoxlari va tuyoqlari bilan yerni o'yishga harakat qiladi. Shu yo'l bilan o'zining kuchliligini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Agar bu bilan qanoatlanmasa, erkaklaridan biri qochguncha shox tashlab urishadi.

**Shimol bug'usining** gavdasi va bo'yni ancha uzun, lekin oyoqlari nisbatan kalta bo'ladi. Asosan, shimoliy rayonlarda yashaydi. Erkagi ham, urg'ochisi ham shoxli bo'ladi. Qo'lga o'rgatilganlari ham o'zi ovqat topib yeydi. Podada urg'ochi bug'u bilan bolalari bo'ladi, erkagi alohida yashaydi.

**Chipor bug'u** bug'ularning eng chiroylisi bo'lib, uzunligi 180 sm, bo'yi 110—120 sm, og'irligi 100—130 kg bo'ladi. Xitoy, Yaponiya, Kavkaz, Ural, Vetnam va boshqa joylarda aralash o'rmonlarda yashaydi. Rangi yozda oq xollar aralashgan och mallachipor bo'lib, yelkasida qora yo'li bor.

**Buxoro bug'usi** (xongul) asil bug'ular qatoriga kirib, uzunligi 80—90 sm, bo'yi 55—60 sm, vazni 75—100 kg bo'ladi. Erkagi shoxli, shoxida 5 tagacha butoqlari bor. Amudaryo bo'yidagi to'qaylarda, Eron, Afg'oniston va boshqa joylarda uchraydi. Hozir kamayib ketgan.

### Bilasizmi?

*Bug'ular kunduzi dam olib, kechqurun va erta tongda o'tlaydi. Ular o'zi yashaydigan maydonni hidli iz qoldirib, chegaralab chiqadi, boshqa pada yoki bug'ular kelib qolsa, ularni haydaydi. Chipor bug'u yozda shoxini tashlaydi, kuzda yana o'sib chiqadi. Shoxidan dori-darmon tayyorlashda foydalaniladi.*









## OHULAR

**Ohular**, ya'ni g'izollar ham bug'ular (kiyiklar) oilasiga kiradi. Afrika va Osiyodagi cho'l va sahrolarda tarqalgan. O'rta Osiyoda jayron deb atalgan turi uchraydi. Oyoqlari uzun va ingichka, ko'zlari katta, shoxlari halqasimon bo'g'imlarga bo'lingan, dumi kalta va qora, qaddiqomati kelishgan bo'ladi. G'izollar kichikroq poda bo'lib yashaydi. Kunduzi o'tlaydi, g'allasimon o'simliklar, sho'rak va shuvoqlar, qishda buta novdasi va mevasi bilan ovqatlanadi. Jayronlar soatiga 60—65 km tezlik bilan, xavf tug'ilganda doira bo'ylab 15 km gacha masofaga yugura oladi, yiliga bitta bola tug'adi.

### Bilasizmi?

*Mimoza (qo'l tegsa bargi yumiladigan va birozdan so'ng ochiladigan to'pgulli yoki boshoqsimon o'simlik) ohuning eng sevgan ovqatidir. Ohu bolasi qo'lga tez o'rganadi, uni uy sharoitida ham saqlash mumkin. Ohu soatiga 60 km tezlik bilan yugura oladi.*







## TUYALAR


*Tuyalar juft* tuyoqlilar turkumiga kiradigan yirik o'txo'r hayvon. *Bir o'rkachli va ikki o'rkachli tuyalar* bo'ladi. Tuyalar issiq sahro va cho'llarda tarqalgan, sho'ra va shuvoq kabi o'simliklar bilan ovqatlanadi. Bir o'rkachli tuya Afrika, Arabiston, Kichik Osiyo va Hindiston sahrolarida, Turkmaniston va O'zbekistonda bor. Ikki o'rkachli tuya Mo'g'uliston va Xitoyda, Qozog'iston, Qirg'izistonda tarqalgan.

Tuya yurganida va yotganida yerga tegadigan joylarini—tizz va ko'kragini issiqlik ta'siridan saqlaydigan qadoqlari bo'ladi, shu sababli qizigan qumda ham bemalol yotaveradi. Tuyaning tanasi qisqa, bo'yni va oyoqlari uzun bo'ladi, 30—40 yil yashaydi. Ikki-uch yilda bir marta bolalaydi. Tuyadan yuqori sifatli jun, sut va go'sht olinadi. Sahro va cho'llarda tuyada yuk tashiladi. Katta, kuchli tuyalar o'z og'irligicha—700 kg gacha yukni ko'tara oladi, ustiga odamni mindirib, kuniga 80 km gacha yo'l bosishi mumkin. Terlamaydi, issiq kunda minutiga 16 marta, sovuq kunda sakkiz marta nafas oladi.

### Bilasizmi?

*Tuya 30—40 kungacha suv ichmasdan yura oladi, o'rkachida 100—120 kg ga qadar yog' bo'ladi, cho'l va sahroda ovqat topilmagan vaqtda va suv yo'g'ida shu yog' hisobiga yashaydi. Suv ichganida bir yo'la 100—150 l suv ichadi.*









## YOVVOYI QO'YLAR

**Yovvoyi qo'ylarning** arxarlar, yolli qo'y, qor qo'yi kabi bir necha turlari bor. Muflon va arxarlar gavdasining tuzilishi, xulqi echkilarnikiga juda o'xshaydi, lekin soqoli, erkagida hid chiqaradigan bezning bo'lmashligi, shoxining uch qirrali va burma bo'lishi bilan echkilardan farq qiladi. Shimoliy yarim sharda, O'rta dengiz orollarida, Eron, Afg'oniston, Markaziy Osiyo respublikalarida, jumladan, O'zbekistonda, Qozog'iston tog'larida uchraydi. Poda bo'lib yashaydi. Tog' yaylovlarida joydan joyga ko'chib yuradi.

### Bilasizmi?

*Yovvoyi qo'ylar 5500 m balandlikka ko'tarila oladi, ular soatiga 60 km gacha yo'l bosadigan chopqir hayvonlardandir, 12—13 yil yashaydi, bo'yi 1,25 m, og'irligi 200—220 kg gacha bo'ladi.*

**Qo'yho'kiz** gavdasining tashqi ko'rinishi qisman ho'kizga o'xshasa ham ko'p belgilari bilan qo'yga yaqin turadi. Shimoliy Amerikaning qutb tomonida, ayniqsa Grenlandiyada ko'p tarqalgan. Gavdasining uzunligi 2,5 m, bo'yining balandligi 1 m dan ortiq, erkagining og'irligi 300 kg gacha bo'ladi. Lishaynik, mox va o'tlar bilan ovqatlanadi. Muzda yiqilib ketmasligi uchun qisqa va kuchli oyoqlarining tuyoqlari orasida jun o'sadi. Gavdasi qo'pol bo'lsa ham, chopishda ot va kiyikdan qolishmaydi. Urg'ochisi bolalari bilan 6—8 tadan pada bo'lib yashaydi.

### Bilasizmi?

*Qo'yho'kiz dushmanidan himoyalashda erkaklari urg'ochi va bolalarini halqa qilib o'rab oladi va dushmaniga tikilib turadi. Yirtqich hayvon hujum qilganida qo'yho'kiz uzunligi 60—70 sm keladigan shoxi bilan yirtqichni otib yuboradi, shu zahoti boshqalari unga tashlanib, yanchib tashlaydilar. Ovchilar halqa bo'lib turgan qo'yho'kizlarni bittalab otganlarida oxirgisi ham orqasida bolalari turgani uchun joyidan jilmagan.*





## YOVVOYI CHO'CHQALAR

**Yovvoyi cho'chqalarning** Yevropa, Shimoliy Afrika va Osiyoda, ayniqsa, Markaziy Osiyoda ko'p uchraydigan turi **to'ng'izdir**. To'ng'iz o'rmon va botqoqliklarda yashaydi. Uy cho'chqalarining nasl boshisidir. Gavdasining uzunligi 1,5 m, dumi 25 sm, og'irligi 200—250 kg ga qadar boradi. Tanasi baquvvat, bo'yni yo'g'on, oyoqlari qisqa va to'rt barmoqlidir. Qoziq tishlari yuqoriga va ikki tomonga o'sib chiqqan. Poda bo'lib yashaydi, faqat qari erkaklari alohida yashaydi. Asosan, 4—8 ta bola tug'adi. Kunduzi buta va qamishlar orasida, tog'larda, katta toshlar va daraxtlar soyasida dam olib yotadi, kechqurun ovqatlanadi, qishda esa kunduzi ovqatlanadi. Ildiz-poyalar, o't, yovvoyi mevalar to'ng'izning asosiy ovqatidir. O'zbekistonda tog'li rayonlarda uchraydi, rangi to'q qo'ng'ir bo'ladi.

### Bilasizmi?

*To'ng'izlar, asosan, o'simlik va zamburug'lar bilan ovqatlansa-da, och qolganda hech narsadan qaytmaydi, hatto yosh buzoq va qo'zilarga ham hujum qiladi.*

Yovvoyi cho'chqalarning yana bir turi **so'galli cho'chqalar** yo'g'on, xunuk va beo'xshov hayvonlardir. Tumshug'ining yon tomonlarida, ko'zlarining ostida katta-katta so'galsimon ortiqlari bo'ladi. Tanasining uzunligi 145—190 sm, bo'yi 65—85 sm, og'irligi 150 kg gacha bo'ladi. Asosan, Afrikada tarqalgan. Cho'lning suvga yaqin bo'lgan butazor yerlarida poda bo'lib yashaydi. Ertalab va kechqurun o'tlaydi. Arslon, leopard, sirtlon kabi dushmanlaridan uzun, o'tkir qoziq tishlari bilan himoyalanaadi.

### Bilasizmi?

*So'galli cho'chqalar uyasiga kirib yotishida avval erkagi orqasi bilan kiradi, so'ngra bolalari to'g'ri kiradi, oxirida ona cho'chqa orqasi bilan kirib, boshi bilan uya og'zini bekitib turadi. Ular o'tlaganda oldingi oyoqlarini bukib, cho'kkalab yuradi.*

Amerika o'rmonlarida uchraydigan **pekarlar** ham yovvoyi cho'chqalarga o'xshaydi. Pekarlar odatdagi cho'chqalardan ancha kichik—uzunligi 115 sm cha, bo'yi 55 sm cha va og'rligi 30 kg gacha bo'ladi. O'rmonlarda 20—25 tadan poda bo'lib yashaydi, har qaysi poda o'zi yashaydigan hududga boshqa podani kiritmaydi, o'simliklar bilan faqat kechasi ovqatlanadi.







## QUYON VA TOVUSHQONLAR

Quyvon va tovushqonlar kemiruvchilarning yirigi bo'lib, gavdasining uzunligi 30—60 sm, quloqlari uzun, dumi qisqa, orqa oyog'i oldingi oyoqlariga nisbatan uzun bo'ladi. Quyvonlarning bir necha turlari bor. Ular dunyoning deyarli barcha zonalarida tarqalgan. Yozda har xil o'tlar, qishda po'stloq va novdalar bilan oziqlanadi. Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda *tolay tovushqoni* deyiladigan turi bo'lib, u cho'l, to'qay va tog'larda yashaydi. Mo'ynasi kulrang va sarg'ish-kulrang bo'lib, olachipor naqshlari bo'ladi. Har yili bir necha marta urchidi va har gal 3—6 tagacha bolalaydi, maxsus uya yasamaydi. Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikaning tundra, o'rmon va cho'l zonalarida, butazor va qamishzorlarda *oq quyvon* uchraydi. Uning rangi yozda kulrang bo'lib, qor tushganda oqqa aylanadi.

### Bilasizmi?

*Quyvonlar odatda kunduzi dam olib, kechqurun ovqatlanadi, ayrimlari boshqa hayvonlarning (masalan, tulkilarning) tashlab ketgan uyalaridan foydalanadi. Quyvonlarning oyoq panjalari ancha keng va junli bo'lib, qorda chopganda 1--2 sm joyga 9—10 g yuk tushadi, shu sababli botib ketmaydi. Soatiga 50 km gacha tezlik bilan yuguradi.*







## TOSHBAQALAR

Toshbaqalar orqa va qorin qalqonlaridan iborat suyak-shoxsimon yoki suyak-terisimon kosasi bor sudralib yuruvchi hayvonlardir. Asosan, quruqlikda yashovchi va suvda yashovchi toshbaqalarga bo'linadi. Ularda tish bo'lmaydi, ammo jag'lari shoxsimon plastinkalar bilan qoplangan va o'tlarni bemalol uzib oladi. Quruqlikda yashaydiganlari yashil o'simliklar, mevalar bilan oziqlanadi. Dengiz toshbaqalari esa kichik baliqlarni ham yeyaveradi. Toshbaqalar xavf tug'ilganda boshi, dumi va oyoqlarini kosasi tagiga tortib oladi, ularning hammasi tuxum qo'yib ko'payadi.

Mamlakatimizda O'rta Osiyo toshbaqasi yoki cho'l toshbaqasi deyiladigan turi uchraydi, uzunligi 15—25 sm bo'ladi. Qishda uyquga ketib, bahorda uyg'onadi, may—iyul oylarida 5 tagacha tuxum qo'yadi. Avgust—oktabr oylarida tuxumni yorib chiqqan bolalari tuproq (qum) ostida erta bahorgacha yotadi.

Dengiz toshbaqalari yashil rangli, oldingi oyoqlari suzgichga aylangan, kosasi yassiroq, uzunligi 1,5 metrcha, og'irligi 400 kg gacha bo'ladi. Dengizning qumli qirg'oqlarida qumni 20 sm gacha kovlab, 70—100 dona tuxum qo'yadi va ustini qum bilan ko'madi. 1,5—2 oyda tuxumni yorib chiqqan bolalari dengiz tomon harakatlanadi.

### Bilasizmi?

*Toshbaqalarning 210 dan ortiq turi bor. Quruqlikdagi toshbaqalar 100—150 yil yashaydi. Ular bir yilgacha ovqatsiz va suvsiz yashashi mumkin. Ayrim turlari 400 kg, uzunligi 1 metrdan ortiq va balandligi 60 sm gacha bo'ladi. Dengiz toshbaqalari yuzlab kilometr naridan qumli qirg'oqni topib keladi, yo'lidan hech adashmaydi.*







## KENGURU



**Kenguru** — qopchiqli sutemizuvchilar oilasiga kiradigan yirik o'txo'r hayvon, Avstraliya va uning atrofidagi orollarda tarqalgan. Bir necha turi bor.

Kengurular har xil o'tlar, daraxt barglari, yosh novdalar, daraxt kurtaklari bilan ovqatlanadi. Kengurularning eshitish organi yaxshi rivojlangan, ko'rish va hid bilish organlari uncha taraqqiy etmagan. Poda bo'lib yuradi, lekin har biri alohida yashaydi. Eng yirik gigant kenguruning urg'ochisi yong'oqdek bitta bola tug'adi. Bolasi o'zi sakrab yuradigan bo'lguncha onasining qopchig'ida yashaydi. Gigant kenguru gavdasining uzunligi 2 m, dumi 1 m ga yaqin bo'ladi, cho'llarda va kam daraxtli o'rmonlarda yashaydi, sakrab harakat qiladi. Qizil kenguru erkagining rangi to'q qizil, ba'zan kulrang, urg'ochisi ko'kimtir bo'ladi, Markaziy Avstraliyaning butazorlarida yashaydi.

### Bilasizmi?

*Qizil kenguruning bolasi tug'ilganda uzunligi 2 sm, og'irligi 0,8 gr atrofida bo'ladi, 1 yilga qadar onasining qopchig'ida yashaydi. Qizil kenguru soatiga 56 km tezlik bilan yugura oladi. Kengurularning go'shti ovqatga ishlatiladi, mo'ynasidan qimmatbaho kiyimlar tikiladi.*







## BEGEMOT

**Begemot** —suv ayg'iri faqat Afrikada yashaydi. Yirik o'txo'r hayvon, erkagining og'irligi 3 tonnagacha, gavdasining uzunligi 4 metrdan ortiq bo'ladi. Suvda yaxshi suzadi, suzganda xalaqit bermasligi uchun quloqlari juda kichkina bo'ladi. Bosh, bo'yin va tanasi bir-biri bilan qo'shilib ketgan, oyoqlari yo'g'on va qisqa, to'rtta harmog'i bo'ladi. Barmoqlarining orasida suzgich pardalari bor. Ko'zi bilan burun teshiklari boshining tepasiga o'rinishgan. Suvga sho'ng'iganda burun teshigi maxsus muskul yordamida bekilib qoladi. Pastki jag'ida kuchli va uchi ingichka qoziq tishi bo'lib, uzunligi 70 sm gacha boradi. Urg'ochilari bolalari bilan poda bo'lib, qari erkaklari esa yolg'iz yashaydi. Kunduz kunlari chala mudragan holda suvda dam olib yotadi, kechqurun va kechasi qirg'oqqa chiqib o'tlaydi. Begemotlar 50 yilgacha yashaydi.

### Bilasizmi?

*Begemot suv ostida 4—5 minut tura oladi. Ayrim mamlakatlarda begemotning go'shti ovqatga ishlatiladi. Bitta begemotdan taxminan 520 kg lahm go'sht chiqadi, jigarining og'irligi 27 kg, terisining og'irligi 248 kg keladi. Begemot terisi 6 yil davomida oshlanadi, natijada u toshdek qattiq bo'lib qoladi, unda hatto olmosni ham silliqlash mumkin bo'ladi. Suvda 30 km gacha to'xtamasdan suzganligi ma'lum.*








## HAYVONOT OLAMIGA SAYOHAT

# KEMIRUVCHILAR

*Keng tarqalganligi, soni, turli-tumanligi va deyarli hamma joyda yashashi jihatidan kemiruvchilarga teng keladigani yo'q. Hozirgi paytda ularning 1,7 mingdan ortiq turi bor, bu barcha sutemizuvchilarning 40 % dan ko'prog'ini tashkil qiladi. Ular boshqa sutemizuvchilardan, asosan tishlarining tuzilishi va pastki jag'ining harakati bilan farq qiladi. Kemiruvchilarning har qaysi jag'ida bir juftan keskich tishlari bo'lib, ko'pincha ular og'zidan tashqariga chiqadi va ustidagisi pastidagisi bilan ustma-ust tushib, oziqni kesib olishga moslashadi. Keskich tishlarning faqat tashqi yuzasi emal bilan qoplangan, ichki yuzasi esa yumshoq modda — dentindan tarkib topgan. Shu tufayli tishlar doimo o'z-o'zidan charxlanadi va o'tkirligicha turadi. Pastki jag'ining kuchli muskullari qattiq oziqni ham kemirishga imkon beradi. Ba'zi kemiruvchilarda ular in o'yish, o'zini muhofaza qilish va o'ljasini o'ldirishga xizmat qiladi.*



*Kemiruvchilar asosan kichik hayvonlardir. Eng kichik kemiruvchi (mitti sichqon)*



*tanasining uzunligi 5 sm, og'irligi 10 g keladi, eng yiriklariniki uzunligi 100—130 sm va og'irligi 50 kg gacha bo'ladi. Ko'pchilik kemiruvchilarning lunji orqasida qopchiqlari bo'ladi, ular don va boshqa mahsulotlarni ana shu qopchiqlarida tashib ketadi. Kemiruvchilar asosan o'simliklar bilan oziqlanadi, lekin hammaxo'rlari ham bor. Yiliga bir necha marta urchiydi. Ikki yildan (mayda kemiruvchilar) 22 yilgacha (jayra va shinshillalar) yashaydi.*

*Kemiruvchilar odatda uch turkumga ajaratiladi: olmaxonsimonlar (olmaxonlar, sug'urlar, yumronqoziqlar, olasichqonlar, qunduzlar va boshq.) jayrasimonlar (jayralar, ignali kalamushlar, shinshillalar, dengiz cho'chqalari va boshq.), sichqonsimonlar (sichqonlar, kalamushlar, og'maxonlar, sonyalar, qo'shoyoqlar, lemminglar va boshq.). Bulardan ko'rsichqon, ko'r kalamush kabilar yer ostida yashaydi. Burunduz (olasichqon), olmaxonlar daraxtda o'rmalab yuradi, uchqur tiyin esa ikki yonidagi teri pardasi yordamida uchadi. Ayrim kemiruvchilar, masalan, qunduz, suv kalamushi, ondatra kabilar suvda va quruqlikda hayot kechiradi. Qunduz (bobr), ondatra, nutriya kabilar yumshoq mo'ynali terisi uchun ovlanadi. Lekin ko'pchilik kemiruvchilar qishloq xo'jaligiga katta zarar yetkazadi. Ayrimlari odam va hayvonlar uchun juda xavfli bo'lgan yuqumli kasalliklarni tarqatadi. Shu sababli kemiruvchilarning zararli turlariga qarshi kimyoviy, mexanik va biologik usullar bilan kurash olib boriladi.*



## OLMAXONLAR

---

Kemiruvchilarning asosan daraxtda yashashga moslashgan turi. Ularning bo'yi, dumini hisobga olmaganda, 10 sm dan 40 sm gacha bo'ladi. Olmaxon chaqqon, ziyrak hayvondir. U 3—4 metrga, yuqoridan pastga qarab esa 10—15 metrga sakray oladi, bunda dumi rul vazifasini bajaradi. Yevropa, Janubiy Osiyo, Afrikada, Kavkaz, O'rta Osiyo va Qozog'istonning tog'li rayonlarida tarqalgan. Daraxtlar yong'og'i qo'ziqorin, meva, urug' va hasharotlar bilan oziqlanadi. Daraxt kovaklarida yoki o't-o'lanlardan to'qilgan inlarda yashaydi. Olmaxonlar yiliga uch martagacha bolalaydi. Har gal 4 tadan 10 tagacha bola tug'adi. Hindiston, Shri-Lanka va Indoneziyada eng yirik olmaxonlar yashaydi. Qirol olmaxoni deyiladigan usti qora olmaxonning dumi bilan birgalikdagi uzunligi bir metrga yetadi, og'irligi 2—3 kg bo'ladi. Usti qizil, kulrang va boshqa rangli yirik olmaxonlar ham bor. Yirik olmaxonlar daraxtdan-daraxtga yetti metrga sakraydi.

Xalqaro bozorda kichkinagina o'rmon olmaxonining sarg'ish-kulrang mo'ynasi qadrlanadi. U, asosan, Sibir o'rmonlarida yashaydi. Tunda oziqlanadi, qishda uyquga ketadi. Yanvarning oxirlarida uyg'onib, urchiydi.

## Bilasizmi?

*Yirik olmaxonlar yaltiroq narsaga juda qiziquvchan bo'ladi. Yerda yaltiroq metall buyumni ko'rsa xavf-xatarni unutib, daraxtdan tushib keladi. Olmaxon bolalash uchun alohida, uxlash uchun alohida va yog'in-sochinlardan bekinish uchun alohida in yasaydi. Olmaxon daraxt barglari orasidan yong'og'ini qidirib o'tirmaydi, u daraxt butog'ini qimir-latib, o'zi bir chekkada kuzatib turadi: qaysi butoq uzoq qimirlab tursa va og'ir bo'lsa, o'sha shoxda yong'oq bo'ladi.*



## UCHAR OLMAXONLAR

Bu kemiruvchining ko'zlari katta-katta, lekin ixcham bo'ladi — bo'yi 20 santimetrga yetadi. Oldingi va orqa oyoqlari orasida teri qatlami bo'ladi. Uchgan vaqtida bu burma qatlamlar to'g'rilanadi va oldingi oyoqlarini cho'zib, orqa oyoqlarini dumiga qisib oladi. Bunda ham dumi rul vazifasini bajaradi. Rossiya o'rmonlarida yashaydigan uchar olmaxonlar 50 metrga qadar ucha oladi. Hind-Xitoyda yashaydigan yirik uchar olmaxonlar burgutga o'xshab sho'ng'ishdan tashqari, havoda doira yasab, 450 metrga qadar ucha oladi. Ular qishda uxlamaydi. Daraxt kovaklarida yumaloq in yasab, u yerga olxa daraxti kuchalasi va bargaklarini hamda qayin g'oddalarini to'playdi va yotadi. Eng yirik uchar olmaxon *taguan* deb ataladi va Sharqiy Hindiston, Birma yoki Seylon o'rmonlarida yashaydi. Kunduzi uxlaydi va kechasi oziqlanadi. U hammaxo'r kemiruvchidir — o'simlik mahsulotlari bilan bir qatorda qo'ng'izlar, chigirtkalarni ham yeyaveradi, ba'zan kichik qushlarga ham hujum qiladi. Uning dumi bilan birgalikdagi uzunligi 120 sm, "qanotlarini" yozgandagi uzunligi 60 sm ga yetadi, og'irligi 1,4 kg gacha boradi.



## QUNDUZ

**Qunduz (bobr)** — suvda va quruqlikda yashovchi kemiruvchi hisoblanadi. Qunduzlar dunyodagi eng yirik kemiruvchilardir — bo‘yi 1,3m gacha, vazni 30 kg gacha boradi, rangi och qo‘ng‘ir va qora. Shimoliy Amerikada, Yevropada, O‘rta Osiyoda va Sibirda tarqalgan. Qunduzlar 25 yilgacha yashaydi, yiliga bir marta uchtdan beshtagacha bolalaydi. Yangi tug‘ilgan bolasi ikki-uch kundan keyin suza boshlaydi. Onasi bolalarini olti hafta sut bilan boqsa ham uch haftadan keyin o‘simliklarni eya boshlaydi. Qunduzlar o‘simliklar po‘stlog‘i, novdalari, barglari, botqoqlikda o‘sadigan o‘simliklar bilan oziklanadi. Suv ostida qishga anchagina shox-shabba yig‘ib qo‘yadi. Uning uzun-uzun keskich tishlari labining ustiga chiqib turadi va og‘zini ochmay turib ham kemiraveradi. Qunduz suv ostida 15 minutgacha nafas olmay turishi mumkin. Qunduzlar uya va in qurib yashaydi. Uyalarini botqoq qirg‘oqlarda suv ustiga shox-shabba to‘shab va loy bilan yopishtirib suv yuzidan 1—3 m balandlikda quradi. Uyasining diametri 10 m gacha boradi. Bu indan chiqish joyi esa suv ostida bo‘ladi. Bu indan tashqari ular inlarini tik qirg‘oqlarga ham o‘yib yasaydilar. Bu indan chiqish joyi ham suv ostida bo‘ladi. Suv kamayib qolganda qunduzlar har xil narsa tashlab to‘g‘on quradilar va suv sathini ko‘taradilar. Ularning mo‘ynasi sifatli, dumi junsiz, yirik tangachalar bilan qoplangan bo‘ladi.



## JAYRALAR

**Jayralar** — suturemizuvchi hayvon hisoblanadi. Tanasining uzunligi 90—95 sm gacha, vazni 15—20 kg gacha (ayrimlariniki 27 kg gacha) bo‘ladi. Terisining usti qattiq jun va qillar bilan qoplangan. Afrika, Janubiy Yevropa, Janubiy va G‘arbiy Osiyoda uchraydi. Tanasida qattiq qillar bilan birga ninalari ham joylashgan. Dumida ichi kovak ninalar-shaqildoqlar bo‘ladi. Yirtqich hayvonga duch kelganda teskari o‘giriladi va shu ninalarini shaqillatib, dushmanini qo‘rqitmoqchi bo‘ladi. Agar buning foydasi bo‘lmasa jayra orqaga tisarilib, birdaniga dushmaniga hujum qiladi va ninalarini ota boshlaydi. Hindiston jayrasida o‘qqa o‘xshab otildigan bu ninalarning uzunligi 42 sm ga yetadi. Yo‘lbars yoki qoplonga sanchilgan bunday nayzalar oxir-oqibatda yirtqichni nobud qiladi.

Jayra o‘simliklarning piyozi, ildizpoyasi va urug‘i, o‘tlar, to‘kilgan mevalar bilan oziqlanadi. Har yili 2 marta 3—4 tadan bolalaydi, bolalari 10 kundan keyin mustaqil ovqatlana boshlaydi va onasi ularni tashlab ketadi. Ba‘zi xalqlar, ayniqsa italiyaliklar jayra go‘shtini juda yaxshi ko‘radilar. Jayraning daraxtda yashaydigan, nina otmaydigan turlari ham bor.

**Bilasizmi?**


*Jayralar, asosan tunda oziqlanadi, ular polizlarga kirib qovun va makkajo‘xorini kemirishni yaxshi ko‘radi.*

*Jayralar nina otishi sababli hech narsadan qo‘rqmaydi. Hatto avtomobillarga ham yo‘bo‘shatmaydilar.*

*Ular yo‘lga turib olib, kalta orqa oyoqlarida g‘azab bilan deysinadilar va xurillaydilar, ninalarini shaqillatib qo‘rqitmoqchi bo‘ladilar.*









## ONDATRA

---

*Ondatra* — suvda va quruqlikda yashaydi. U dalasichqonga oʻxshaydi, lekin undan katta — boʻyi 35 sm gacha, sovuqda hur-payganida yanada kattaroq koʻrinadi, vazni 1,5 kg gacha boradi. Shimoliy Amerikada, Yevropada, Oʻrta Osiyoda yashaydi. Orqa oyoq barmoqlari orasida suzgich pardalari bor. Quruq oʻt, qamish, qiyoqoʻtlarni balchiq bilan biriktirib, suv ustiga uya quradi. Qirgʻoqlar baland boʻlganda kovlab in yasaydi. Inning ogʻzi suv ostida boʻladi, soʻngra yuqoriga tomon ketgan yoʻl boʻlib, ondatra oʻsha yerda yashaydi. Ondatralar qamish ildizlari, lux, qiyoqoʻt, molluskalar, kichkina baliqlar, qisqichbaqalar bilan oziqlanadi. Yiliga 2—3 marta, oltidan—yettitagacha bolalaydi. Qishga oziq gʻamlab qoʻyish uchun maxsus uyalar quradi. Koʻl, daryo va botqoqliklarning oʻtlar bilan qoplangan qirgʻoqlarida yashaydi. Moʻynasi juda mayin va sifatlil, ustki tomoni jigarrang yoki sariq, ostki tomoni esa qora yoki kulrang boʻladi.

Butun dunyoda yiliga yetti milliondan koʻproq ondatra ovlanadi, lekin tez koʻpaygani sababli kamayib ketmaydi.

## NUTRIYA

---

*Nutriya* — ham suvda va quruqlikda hayot kechiradi. Janubiy Amerikaning chuchuk suvlarida, Yevropadagi koʻpchilik mamlakatlarda, Zakavkazyeda, Oʻrta Osiyoda iqlimlashtirilgan. Boʻyi 50—60 sm, vazni 12—15 kg ga yetadi, dumi doira shaklida bukilgan, siyrak junli, dum terisi tangachali boʻladi. Orqa oyoq barmoqlari orasida teri parda—suzgichi bor. Molluskalar, oʻsimlik kurtaklari, ildizlari, mevasi bilan oziqlanadi, 8—10 yil yashaydi. Yiliga uch marta bolalaydi, 5—10 ta bola tugʻadi. Moʻynasi jigarrang. U ham qirgʻoqlarga in, uya qurib yashaydi. Uyasini qurishda buta shoxini egib, yostiqcha qiladi va ustiga barg toʻshab yotaveradi. Inining ogʻzi

ham suv ostida emas, suv ustida bo‘ladi, har qanday hayvon ham iniga kirishi mumkin. Bundan tashqari, ini qishda sovuq bo‘ladi, bu hayvon esa sovuqqa chidamli emas, shu sababli nutriya unchalik ko‘paymaydi.

## SHINSHILLALAR

*Shinshillalar* — dunyoda eng sifatli va eng qimmat mo‘yna beradigan kichkina kemiruvchi hayvonlar. Shinshillaning mo‘ynasi juda pishiq, qalin, chidamli, yumshoq va yengil, qalin ipakdan salgina og‘irroq bo‘ladi. Rangi kumushsimon-kulrang, havo rangda bo‘lib, sadafdek tovlanib turadi. Qo‘ng‘ir-kulrang shinshillalar ham bor.

Shinshillalar ilgari Chili va Peruda tog‘ etaklaridan boshlab, besh ming metr balandlikdagi tog‘larda yashagan, keyinchalik mo‘ynasi uchun har kuni yuzlab va minglab ovlash natijasida bu yerlarda qirib yuborilgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin shinshillalar Shimoliy Amerika va Yevropaga keltirilib, ko‘paytirila boshlangan. O‘zbekistonga 1964- yilda keltirilgan va keyin Tojikiston tog‘lariga qo‘yib yuborilgan. Lekin hali ham bu yerlarda kam uchraydi.

Ular mo‘ynasining narxi oltinga barobar keladi.

Shinshillalar katakda boqishga ham tez o‘rganadi, lekin qo‘lda boqilgan shinshilla mo‘ynasining rangi bir xil bo‘lmaydi, sifati ham yomonlashadi. Ular yiliga ikki-uch marta, 2—6 tadan bola tug‘adi, tutqunlikda 20 yilgacha yashaydi. Uzun dumli, kichik shinshillalarning bo‘yi 25 sm bo‘ladi, qisqa dumli shinshillalarning bo‘yi esa 30—38 santimetrga yetadi. Kichik shinshillalarning urg‘ochisi erkagidan yirikroq bo‘ladi. Shinshillalar Halqaro „Qizil Kitob“ga kiritilgan.

## SUG'URLAR

---

*Sug'urlar* — kemiruvchilarning tiyinsimonlar oilasiga kiradi. Ularning dumi kalta, quloq suprasi kichik va dumaloq, mo'ynasi sarg'ish-kulrang yoki dog'lari bor sarg'ish bo'ladi. Tanasi 50—60 sm, dumi 20 sm gacha keladi! Dumi uzun qizil sug'ur, ko'k sug'urlar ham bor. Yevropa, Shimoliy Amerika va O'rta Osiyo tog'larida, pasttekisliklardagi o'tloqlarda yashaydi. O'simlik gullari va urug'i bilan kunduzi oziqlanadi. Qishda 5—6 oylab uyquga ketadi. Murakkab inlar (chuqurligi 3 m, uzunligi 8 m) quradi. Ini doimo quruq bo'ladi. Agar suv kiradigan bo'lsa, gavdasi bilan in og'zini to'sib ham suv kiritmaydi. Qishda sug'urlar uxlaydigan joy umumiy yotoqxonaga o'xshaydi — ba'zan 20 tagacha sug'ur bir joyda uxlaydi. Yiliga 4—5 ta bola tug'adi. Sug'urlar juda yashovchan bo'ladi: agar uxlab yotgan sug'urni o'ldirilsa, yuragi uch soatgacha urib turadi. Sug'urga mikroblar ham ta'sir etmaydi. Mo'ynasi uchun ko'plab ovlanadi.

### Bilasizmi?

*Yaqinida odam yoki yirtqich paydo bo'lganda sug'urlar xushtak chalib, bir-birlariga xabar beradi, shunday qilib juda uzoqdagi sug'ur ham xavfdan ogoh bo'ladi va darhol yashirinadi.*

*Faqat Mo'g'ulistonning o'zida yiliga ikki millionga yaqin sug'ur terisi ekspert qilinadi. Sug'urlarning go'shtini ham ish-taha bilan eyishadi.*

## QO'SHOYOQLAR

---

*Qo'shoyoqlar* — Yevropa, Osiyo va Afrikaning ochiq sahrolarida yashaydi. O'rta Osiyoda o'ndan ortiq turi bor. Bundan tashqari, Yevropa, Shimoliy Afrika va Shimoliy Amerikada tarqalgan, dumi uzun, orqa oyoqlari ham uzun, oldingi oyoqlari

kalta bo'лади. Ularning tanasi orqa oyoqlarida chaqqon sakrashga moslashgan. Besh barmoqli qo'shoyoqning yirik turlari soatiga 40—50 km tezlik bilan yuguradi. Tinch holatida to'rtala oyoqlarida ham yuradi, orqa oyoqlaridan sakrab yugurganida yo'nalishini tez o'zgartira oladi, bir sakrashda 2 m ga yaqin masofaga sakraydi. Ularning bo'yi 10—20 sm keladi, dumi tanasidan uzun, dumining uchida bir tutam tuklari bor. Qo'shoyoq qishda uxlash uchun dumiga yog' to'playdi. O'simliklar, ularning ildizlari, urug'lari, hasharotlar va ularning lichinkalari bilan oziqlanadi. Yiliga ikki marta 2—8 tadan bola tug'adi. Tunda oziqlanadi, yerni tez qaziydi, suvsiz uzoq vaqtga chidaydi, 5—6 yil yashaydi.

### Bilasizmi?

*Qo'shoyoqning dumi uzib tashlansa, u yugura olmay qoladi, muvozanatini yo'qotib, tez-tez yiqilaveradi, demak, dumi yog' to'plovchi vazifasidan tashqari muvozanatlovchi, rul vazifasini ham o'taydi.*

*Uzoq vaqt suvsizlikka chidagani bilan qo'shoyoq suv topganida simirib ichmaydi, balki oldingi oyoqlarini suvga ho'llab, so'ngra ularni so'radi, shu bilan chanqog'ini bosadi.*

## KALAMUSHLAR

***Kalamushlar*** — sichqonsimonlar oilasiga kiradi. Tanasining uzunligi 15—25 sm, dumining uzunligi ham taxminan shuncha va tangachalar bilan qoplangan bo'лади. Dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarda bor. Kalamushlarning tur 140 taga yetadi. O'rta Osiyoda turkiston kalamushi, kulrang kalamush va qora kalamush yashaydi.

Qora kalamush ko‘pincha chordoqlarda bo‘ladi. Kulrang kalamush esa, aksincha, yerto‘lalarda, ekinzorlarda in quradi yoki daraxt kovaklarida yashaydi. Ranglarni yaxshi ajrata olmaydi, qizil rangni esa mutlaqo ko‘rmaydi, hid bilish va eshitish organlari ham kuchli emas. Yiliga uch marta 8—10 tadan bola tug‘adi.

Kulrang kalamush *ombor kalamushi* ham deyiladi. U o‘simliklar, ularning qoldiqlari, o‘limtiklar, qushlarning tuxumlari va boshqalar bilan ovqatlanadi. Oziq-ovqat, don mahsulotlari, ba‘zan mo‘yna va gazlamalarni kemirib, katta zarar yetkazadi. Kattaroq uy hayvonlariga to‘da bo‘lib hujum qilishi ham mumkin. Bundan tashqari, har xil yuqumli kasalliklarni ham tarqatadi. Qora kalamush kulrang kalamushdan kichikroq bo‘ladi. Ular hamma sharoitga tez moslashadi. Qora kalamush O‘rta Osiyoda faqat Turkmanistonda uchraydi. Mexanik, kimyoviy va biologik vositalar bilan kalamushlarga qarshi doimo kurash olib boriladi.

## SICHQONLAR

---

***Sichqonlar*** — mayda, uzun dumli, tushmug‘i cho‘ziq bo‘ladi. Ular o‘simlik va hayvonot mahsulotlarini yeyaveradi, juda harakatchan, qishda uyquga ketmaydi va ovqat g‘amlab qo‘ymaydi, ko‘pincha yerga uya qaziydi va tabiiy pana joydan foydalanadi. Ular ko‘pincha o‘rmonlarda yashaydi, ba‘zi turlari odamlarning uyalarida yashashga moslashib olgan. Mayda turlari (bo‘yi 5 sm keladigan mitti sichqonlar) yiliga 4—5 marta 2—8 tadan bola tug‘adi. Asosan o‘simlik urug‘lari, hasharotlar va hokazolar bilan oziqlanadi.



Mitti sichqonlar mo'tadil iqlimli o'rmon zonalarida yashaydi. Ular boshqoli ekinlarning poyalariga chiqib, o'tdan sharsimon uya yasaydi. Uyaning kirish joyi bo'lmaydi, shu uyaning ichida bolalaydi va uyani teshib chiqib, yana yamab qo'yadi. Odatdagi qo'ng'ir o'rmon sichqoni Shimoliy Afrika, G'arbiy Yevropa, Kavkaz va Qozog'istonda, O'rta Osiyo tog'larida yashaydi. Tulki, bo'ri, boyo'g'li, boshqa har xil qushlar, ilonlar sichqonlarga qiron keltiradi. Lekin ular tez-tez va ko'p bolalaganligi sababli umumiy soni kamaymaydi. Dala sichqon qishloq xo'jaligiga, boshqalari o'rmonchilikka, oziq-ovqat va sanoat mahsulotlariga katta zarar yetkazadi. Bundan tashqari, ular turli xil yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchilarini tarqatadi.

Ularning o'rtacha yashash davri 2—6 oyga boradi, shunda ham ularga qarshi kurashilmasa tez ko'payib ketadi.



## HAYVONOT OLAMIGA SAYOHAT



# SUDRALIB YURUVCHILAR

*Tanasining shakli yerda sudralib yurish uchun moslashgan, tana temperaturasi o'zgarib turadigan umurtqali hayvonlar sudralib yuruvchilar sinfiga kiradi, ular reptiliyalar deb ham ataladi. Sudralib yuruvchilarning terisi quruq, muguz tangachalari, qalqonlar yoki zirh bilan qoplangan bo'ladi, ular suvsiz yerda bemalol yashay oladi. Sudralib yuruvchilar tuxum qo'yish yo'li bilan ko'paydi, ko'pchiligining qo'ygan tuxumlari pergament parda bilan qoplangan, ba'zi turlarining (toshbaqa, gekkon) tuxumi esa zich ohakli po'choq bilan o'ralgan bo'ladi.*

*Sudralib yuruvchilar Yer kurrasining qutbga yaqin joylaridan boshqa barcha iqlim sharoitlarida tarqalgan. Ularning yer ustida, yer ostida, suvda, daraxtda yashaydigan turlari bor. O'rta Osiyoda sudralib yuruvchilarning 50 ga yaqin turlari bor. Ular molluskalar, hasharotlar, qo'ng'izlar, baliqlar bilan, ayrim yiriklari esa kemiruvchilar va, hatto, qushlar bilan oziqlanadi.*







## HAYVONOT OLAMIGA SAYOHAT



# ILONLAR

Ilonlar, tashqi ko‘rinishi, harakatlanish usuli, tanasining tuzilishi, ko‘pchiligining zaharliligi jihatdan barcha mavjudotlardan ajralib turadi. Ilonga duch kelgan har qanday kishi bir seskanib tushadi, qo‘rquv paydo bo‘ladi. Lekin ilonlar hech vaqt odamga o‘z-o‘zicha hujum qilmaydi, himoyalanih maqsadidagina sapchishi mumkin. Ilonlar molluskalar, hasharotlardan tortib, baliqlar, qushlar, kemiruvchilar va hatto mayda sutemizuvchilar bilan oziqlanadi. Ilonlar o‘ljasini butunicha, ba‘zan tiriklayin yutadi. O‘lja kattaroq bo‘lsa va qarshilik ko‘rsatsa, ilonlar uni avval jonsizlantiradi (bo‘g‘ma ilonlar bo‘g‘ish, zaharli ilonlar zaharlash orqali), so‘ngra yutadi. Ilonlar o‘z tanasidan 2—3 marta yo‘g‘on o‘ljani ham yuta oladi. Ilonlar Yer kurrasining Antarktidadan boshqa hamma joyida uchraydi. Biz bo‘g‘ma ilonlar va zaharli ilonlarning ayrim vakillari bilan tanishib chiqamiz.

## *Bilasizmi?*

*Dunyodagi eng katta ilon—Janubiy Osiyoda yashaydigan to‘r-io‘r bo‘g‘ma ilonning uzunligi 10 metrga yetadi. Eng uzun zaharli ilon tangachali qora ilon bo‘lib, Afrika va Hindistonda uning zahridan har yili 10000 ga yaqin kishi halok bo‘ladi.*

*Kobra 350 mg gacha zahar to‘plashi mumkin, bu 165 kishini halok qilish uchun yetarlidir.*

*Kobra zaharini 2,7 metr masofaga tuflay oladi.*





## BO'G'MA ILONLAR

---

*Oddiy bo'g'ma ilonning* bo'yi 2 m dan 5,5 m gacha bo'ladi. Terisining ustki tomoni och kulrang, qizg'ish yoki jigarrangga moyil bo'lib, keng to'q qo'ng'ir yo'llari bor, ular orasida och sariq dog'lar bo'ladi, yon tomoni esa rombsimon to'q dog'lar bilan qoplangan. Oftobda ustidagi tangachalari metallga o'xshab yaltiraydi. Bu ilon Meksika, Braziliya, Peru, Kolumbiya, Venesuela va Argentinada keng tarqalgan. O'rmonlarda, daryo qirg'oqlarida yashaydi, suvga tushmaydi. Kaltakesak, kemiruvchi, mayda sutemizuvchilar va qushlar bilan oziqlanadi.



## Bilasizmi?

*Oddiy bo'g'ma ilon 15 dan 60 ta gacha tirik bola tug'adi, yangi tug'ilgan bolasining uzunligi 0,5 metr keladi, bu ilon 10—15 yil yashaydi. Ba'zi joylarda oddiy bo'g'ma ilonni qo'lga o'rgatib, uyda boqadilar.*

**Anakonda** — Janubiy Amerikada yashaydigan eng katta bo'g'ma ilon, uzunligi 5—6 metrdan 10 metrgacha bo'ladi. Tanasining rangi qo'ng'ir yashil bo'lib, yumaloq yoki cho'ziq shakldagi yirik qora dog'lar bilan qoplangan. Suvi sekin oqadigan qo'ltiqlarda, ko'llar, botqoqli suv havzalarida yashaydi. Asosan, quyonlar, dengiz cho'chqalari, kalamushlar, sudralib yuruvchilar, baliqlar, ba'zan, suv ichish uchun kelgan mayda sutemizuvchilar, qushlar bilan ovqatlanadi. Suvda yaxshi suzadi, suv ostida uzoq vaqt tura oladi, isinish uchun qirg'oqqa ham chiqib turadi. Tutqunlikda 5—6 yil yashaydi.

**Daraxt bo'g'ma iloni** tropik Amerikaning suvga yaqin bo'lgan o'rmonlarida yashaydi, uzunligi 2—3 m keladi. Tanasining usti tiniq yashil, qorin tomoni och sariq rangda, ustida qator oq xol-xol dog'lari bor, ular ingichka oq chiziq bilan bir-biriga tutashgan bo'ladi. Daraxtda yashashga juda moslashgan, shoxlarga dumini o'rab olib, osilib yotadi va o'lja poylaydi. O'ljasi yaqinlashgach, bir hamla qilib oldingi uzun tishlari bilan ushlab oladi va bo'g'ib o'ldiradi, so'ngra yutadi. Qushlar, mayda hayvonlar bilan ovqatlanadi.

**Cho'l bo'g'ma ilonining** uzunligi 70 sm keladi, boshi bilan bo'yni mayda qalgonchalar bilan qoplangan. Orqasi qo'ng'ir tusli bo'lib, uzunasiga ketgan bir qator och jigarrang dog'lari bor. Qornida qalin qora-qo'ngir yoki qora dog'lari bor. Cho'l bo'g'ma iloni Janubiy Ustyurt, Amudaryo deltasi va Xiva vohasining qumli cho'llarida, Qizilqum va Zarafshon daryosining quyi oqimidagi sahrolarda tarqalgan. Qo'shoyoq, qumsichqon, mayda qushlar va kaltakesaklar bilan oziqlanadi. Zaharli emas.



## ZAHARLI ILONLAR

*Hindiston kobrasi (ko'zoynakli ilon)* tanasi chiroyli va kuchli bo'lib, uzunligi 160—180 sm keladi. Boshi yirik qalqonchalar bilan qoplangan, ko'zlari kichik va yumaloq, tanasi silliq tangachalar bilan qoplangan bo'ladi. Yuqorigi jag'ida bir juft zahar tishi, ularning orqasida yana 1—3 ta kichik tishi bo'ladi.

Bu kobraning rangi hamma joyda har xil, umuman, sarg'ish kulrangdan tortib, qo'ng'ir va qoragacha bo'ladi. Qorni och kulrang yoki sarg'ish-qo'ng'ir bo'lishi mumkin. Bo'ynining orqa tomonida ko'zoynakka o'xshash dog'i bor. Kobra xavf tug'ilganda tanasining uchdan bir qismini tik ko'tarib, boshini dushmaniga qarata gorizontol holda tutib turadi, bunda bo'yni kengayib yupqalashadi, shu holatda «ko'zoynagi» juda aniq ko'rinadi, u orqa tomonidan kelgan yirtqichlarni cho'chitadi.



Hindiston kobrasi O'rta Osiyoning janubida, Eron, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Shri-Lanka va Janubiy Xitoyda tarqalgan. Baqalar, sudralib yuruvchilar, qushlar, mayda kemiruvchilar bilan oziqlanadi. U o'ljasini zaharli tishi bilan tishlab o'ldiradi, so'ngra yutadi.

### **Bilasizmi?**

*Hindistonda ilon o'rgatuvchilar kobrani savatga solib, nay chalib o'ynatadilar. Bunda kobra boshini ko'tarib, nay sadosiga mos ravishda boshini tebratadi. Aslida ilon nay ovozini eshitmaydi, u o'rgatuvchining yuzuga tikilib turib, o'rgatuvchi boshini tebratganda ilon ham boshini tebratadi. Bu ilonlarning zahar tishlari olib tashlangan, degan fikr ham noto'g'ri. Agar ilonning tishi olib tashlansa, tez orada yangisi yanada baquvvat bo'lib o'sib chiqadi, ilon ham o'zini jabrlagan kishini chaqishga harakat qiladi. O'rgatuvchilar esa ilonning tabiatini yaxshi bilib, uning chaqishiga sabab bo'ladigan harakat qilmaydilar.*

**O'rta Osiyo kobrasi (kapcha ilon)** Turkmaniston janubi, O'zbekistonning janubi va Janubi-g'arbiy Tojikistonda uchraydi. O'zbekistonda Bobotog'da, Hisor tizmasining tog' etaklarida va Surxondaryo vodiysida, Qarshi cho'lida uchraydi. Tanasining uzunligi 170 sm ga boradi. Rangi ko'kimtir-sariq, to'q jigarrang, qo'ng'ir yoki qora bo'lishi mumkin. Qorin tomoni oq, tanasining oldingi qismida ikki-uchta ko'ndalang qora yo'li bor. Kaltakesaklar, mayda qushlar va boshqa xil ilonlarni tutib yeydi. Odamga duch kelganida iniga tez yashirinishga harakat qiladi, yashirina olmasa, tanasining oldingi qismini ko'tarib, bo'ynini shishiradi va qattiq vishillaydi. Shundan keyin ham odam ketmasa, ilon zaharli tishlari bilan chaqishga harakat qiladi. Odam va uy hayvonlarini juda kamdan kam hollardagina chaqadi. Kapcha ilon zahar olish uchun ba'zan maxsus boqiladi. Uning zaharidan dori-darmonlar tayyorlashda foydalaniladi.











***Shaqildoq ilonlar***, asosan, Amerika qit'asida tarqalgan. Dumining uchida bir necha qattiq terisimon burmalardan tarkib topgan shaqildog'i bo'ladi. Ilon har gal po'st tashlaganda burma segmentiga bittadan qo'shiladi. Bu segmentlar bir-biriga ulanib ketgan bo'lib, boshlanishi ilon dumining uchiga tutashgan bo'ladi. Ilon biror xavf tug'ilganda halqa bo'lib o'ralib oladi va dumining uchini ko'tarib, tez-tez qimirlatadi. Shunda shaqildoq segmentlari o'zaro ishqalanib, ancha qattiq shaqillovchi ovoz chiqaradi, bu ovoz 30 m masofadan ham eshitiladi. Bu ilonlarning uzunligi 1,5—2,0 metr, boshi mayda qalqonchalar bilan qoplangan, terisi tangachali sarg'ish-qo'ng'ir, jigarrang yoki qorarangdagi ko'ndalang dog'lari bo'ladi, avgust-sentabr oylarida 5—10 ta tirik bola tug'adi. Shaqildoq ilonlar tog'larning mayda toshli va butalar siyrak o'sgan etaklarida, daryo bo'ylarida, o'rmonlarning chekkalarida yashaydi, kemiruvchilar, qushlar bilan ovqatlanadi. Bu ilon chaqqanda qon quyilishi, shishish holatlari ro'y beradi. Zaharidan dori-darmon tayyorlanadi.

***Gyurza (ko'lvor ilon)*** Markaziy va Janubiy Osiyoda ko'p tarqalgan anchagina yirik, zaharli ilon bo'lib, tanasining uzunligi 1,5 m gacha boradi, yo'g'onligi odam bilagining yo'g'onligicha keladi. O'zbekistonda Xovos, Nurota tog'larida, Zarafshon tizmasida, Hisor tizmasida uchraydi. Dumi kalta, usti och kulrang yoki to'q kulrang bo'lib, ko'kish-sariq yoki jigarrang tusda tovlanib turadi. Orqasida yirik to'q qo'ng'ir dog'lar, ikki yonida maydaroq dog'lari bor. Qorin tomoni och rangda bo'ladi. Tog'larda, tog' etaklarida va ular oralig'idagi vodiylarda hayot kechiradi. Qoyatoshlarning yoriqlariga, kemiruvchilarning inlariga kirib yashirinadi. Kemiruvchilar, kaltakesaklar, quyon bolalari, qushlar bilan ovqatlanadi, tuxum qo'yib ko'payadi. Daraxtlarga ham chirmashib chiqib ketadi. Odam bosib olgandagina chaqadi. Bu ilon chaqqanda zahari qonga, jigarga ta'sir etadi, badanning chaqqan joyi atrofini shishirib yuboradi, terida binafsha-qizil dog'lar paydo bo'ladi. Bunda gyurza zaharidan tayyorlangan zardob yuborilmasa, odam halok bo'lishi mumkin. Bu zardob boshqa ilonlar chaqqanida ham yordam beradi. Gyurza zaharidan dori-darmonlar tayyorlashda ham foydalaniladi.





***Charxilon (efa)*** Shimoliy Afrika, Arabiston yarim oroli, Iroq, Eron, Afg'oniston va Hindistonda, O'rta Osiyoning janubida tarqalgan. O'zbekistonda Termiz atroflarida, Surxondaryo vohasida, Bobotog' etaklarida, Qizilqum sahrosida uchraydi. Charxilonning uzunligi 75 sm gacha, usti qo'ng'ir-kulrang, och kulrang yoki qum rangida bo'ladi. Yonidagi qiyshiq joylashgan tangachalari qoramtirroq, ikki yonida egri och yo'li bor. Orqasida ko'ndalangiga oqish yoki oq dog'lari, boshining ustida xoch shaklida och rangli jilosi bo'ladi. U bir joyda charx kabi aylanib, yon tangachalarini bir-biriga ishqalaganda g'alati tovush chiqadi, charxilon nomi shundan bo'lsa kerak. Charxilon kemiruvchilar, baqa, kaltakesak, suvilon va o'qilonlar bilan oziqlanadi. 3 tadan 15 tagacha tirik bola tug'ib ko'payadi. Charxilon chaqqon joy juda og'riydi, burun va quloq qonaydi, shilliq pardalardan ham qon oqadi. Tez tibbiy yordam berilmasa, ilon chaqqan kishi 2—3 kunda vafot etishi mumkin, shu sababli ilon chaqqan odam tanasiga tezda ziddi-zahar (zardob) yuborish kerak.

***Cho'l qora iloni (gadyuka)*** bo'yi 55 sm gacha boradi. Usti och qo'ng'ir, kulrang. Orqasi bo'ylab egri qoramtir yo'l ketgan. Tanasining ikki yonida qoramtir dog'lari bor. O'zbekistonda Chirchiq vodiysida, Sirdaryo atroflarida, Chotqol tizmasida uchraydi. Asosan, hasharotlar, kemiruvchilar, kaltakesaklar bilan oziqlanadi. Chaqishi boshqa ilonlarniki kabi xavfli emas. Ilon chaqqan joy og'rib, shishadi, bir necha kundan keyin tuzalib ketadi.

Umuman, Yer yuzida gadyukalarning bir necha turlari bor. Ular bir-biridan rangi, katta-kichikligi, yashash sharoiti bilan farq qiladi.





## HAYVONOT OLAMIGA SAYOHAT





# KALTAKESAKLAR

*Kaltakesaklar sudralib yuruvchilarning eng ko'p va keng tarqalgan turidir. Ularning 3300 dan ortiq turi bor. Ular tanasining katta-kichikligi, rangi, oyoq va dumlarining tuzilishi jihatidan bir-biridan sezilarli farq qiladi. Oyoqlari besh panjali, og'zida tishlari bor. Ba'zi turlarida tili yaxlit bo'lsa, ba'zilarida ikkiga ajralgan, terisi muguz tangachalar bilan qoplangan bo'ladi. Eng kichik kaltakesakning (ba'zi gekkonlar) uzunligi 3,5—4 sm bo'lsa, eng kattasi—echkemarlarning uzunligi 3 metrga yetadi, og'irligi 150 kg gacha bo'ladi. Daraxtlarda va qoyalarda yashaydigan kaltakesaklarning oyoqlari uzun va tirnoqlari o'tkir bo'ladi.*

*O'rta Osiyoda, xususan, O'zbekistonda kaltakesaklarning stsink gekkon, taroq barmoqli gekkon, kulrang gekkon, cho'l agamasi, qurbaqabosh taqir kaltakesak, qurbaqabosh quloqdor kaltakesak, kulrang echkemar, tez kaltakesak, to'r-to'r kaltakesak kabi turlari uchraydi.*







## ECHKEMARLAR

**Indoneziya echkemari** (*boshqacha nomi echkemar komodo*) echkemarlarning eng yirigidir. Uning uzunligi 3 metrga boradi. Bu echkemar qisqichbaqalar, baliq, baqalar, ilonlar, mayda toshbaqalar va mayda sutemizuvchilar bilan ovqatlanadi. U baquvvat oyoqlari bilan tez yugurib, o'ljasi tutib oladi va o'tkir tirnoqlari hamda tishlarini botirib o'ldiradi va parchalab tashlaydi. Tuxum qo'yib ko'payadi. Indoneziya orollarida uchraydi.

**Chipor echkemar** Janubi-sharqiy Osiyoda — Seylon va Hindistonda, Janubiy Xitoyda, Filippinda, Kichik va Katta Zond orollarida keng tarqalgan. Ustki tomonidagi terisi qoramtir kulrang bo'lsa ham, yirik yumaloq dog'lar bilan qoplangan, ular yelka va dumida ko'ndalang qatorlar hosil qilib joylashgan bo'ladi. Eng yirigining uzunligi 2,5 metrga yetadi. Chipor echkemar suvni juda yoqtiradi va, odatda, daryo hamda dengiz qirg'oqlarida uchraydi. Yaxshi suzadi va sho'ng'iydi. Zarur vaqtda kuchli jag'lari va baquvvat dumining zarblari bilan himoyalanaadi. Qisqichbaqa, baqa, ilon, toshbaqa, kemiruvchi va qushlar bilan ovqatlanadi.

### Bilasizmi?

*Chipor echkemar suv tagida 10—20 minut qimirlamay yotishi mumkin. U hatto yirik kobra ilonga ham hujum qiladi. Bunda u ilon sapchiganda yetolmaydigan masofada ilon atrofida ko'p marta aylanadi va ilon charchaganda payt poylab, bir sakraganda uning bo'g'izidan tishlab oladi va o'ldiradi.*

**Kulrang echkemar** Shimoliy Afrika va Janubi-g'arbiy Osiyoda, shuningdek, Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda keng tarqalgan. Ushbu echkemarlarning usti och sarg'ish, kulrang bo'lib, bilinar-bilinmas qo'ng'ir tusli ko'ndalang yo'llari bor. Uzunligi dumi bilan birgalikda 110 sm ga, og'irligi 2,5 kg ga yetadi. O'zbekistonda Qizilqum sahrosida va odamsiz adirlarda yashaydi.





Termiz va Qarshi atroflarida, Farg'ona vodiysida ham uchrab turadi. Kichik kaltakesaklar, ilon, kemiruvchi, qo'ng'iz, chigirtka, kichik toshbaqalar bilan oziqlanadi, qoraqurt va chayonlarni ham yeyaveradi. Odamni uchratganda tanasini ko'tarib shishiradi, qattiq vishillagan ovoz chiqaradi, og'zini katta ochib, tilini chiqaradi va tishlashga harakat qiladi. Qishda iniga kirib uyquga ketadi, aprel oylarida inidan chiqib, ov qila boshlaydi.

## GEKKONLAR

***Stsink gekkon*** O'rta Osiyo va Qozog'istonning qumli sahro va cho'llarida uchraydi. Tanasining uzunligi 11 sm ga yaqin. Tanasi yirik tangachalar bilan qoplangan. Gekkonning orqasi sarg'ish yoki oqish-yashil bo'lib, jigarrang yoki qora-qo'ng'ir dog'lari bor. Ko'zlari bir juft yoqutdek yonib turadi. Rangi oftob nurida kamalakning hamma ranglarini kasb etadi, qorni oq bo'ladi.

Gekkon tunda ov qiladi, tong otishiga yaqin yugurib iniga kirib ketadi. Asosan, qo'ng'iz, o'rgimchak, qurt, chumoli, chigirtkasimonlar, pashsha, beshiktervatar va chirildoqlar bilan oziqlanadi.

***Kulrang gekkon*** O'rta Osiyo va Qozog'istonda uchraydi. Tanasining uzunligi dumi bilan birga 10 sm keladi. Bu kaltakesakning kulrang tanasi qator-qator kichkina do'mboqchalar va qoramtir ko'ndalang hoshiyalar bilan qoplangan. Keles, Ohangaron va Chirchiq daryolari qirg'oqlarida, Farg'ona vodiysi va Toshkent atrofidagi eski devorlarda ko'p bo'ladi. Qumli sahrolarda ham uchraydi, bu yerdagi saksovul va boshqa butalar orasiga kirib olib, ular tanasida chaqqon o'rmalab yuradi.

Bu kaltakesak qo'ng'iz, mayda chigirtkasimonlar, kapalak qurtlari, pashsha va boshqa hasharotlarni tutib yeydi. Yoz kunlari, ayniqsa, kechqurun devorlardan «chik-chik» degan ovoz keladi. Bu o'ljasini kutib yotgan kaltakesakning chirillagan ovozi.









## XAMELEON

*Xameleon* bo'yi 40—45 mm keladigan, daraxtlarda yashaydigan va hasharotlar bilan oziqlanadigan kichkinagina kaltakesakdir. Terisi muguzsimon tangachalar bilan qoplangan. Xameleonlarning ikkala ko'zi mustaqil harakatlanadi va gorizontaal yo'nalishda 180° ga hamda vertikal yo'nalishda 90° ga burilishi mumkin. Shu sababli xameleon bir joyda turib bitta ko'zi bilan yuqoriga yoki pastga, ikkinchi ko'zi bilan esa orqaga yoki oldinga qarashi mumkin, ya'ni boshini qimirlatmay turib atrofidagi barcha hodisalarni bilib oladi.

Atrof-muhit temperaturasi, yorug'lik va namlikning o'zgarishi, shuningdek, ochlik, qo'rquv kabi holatlar ta'sirida xameleon o'z rangini juda tez o'zgartiradi. Uning rangi oqish, sarg'ishdan sariq, pushti, to'q jigarrang va qoragacha tez o'zgarishi mumkin. U o'ljasiga yaqin borib, tilini uzun chiqaradi va tiliga yopishgan o'ljani yutib yuboradi. Xameleonlar Madagaskarda, Afrikaning tog'li o'rmonlarida, O'rtayer dengizidagi ba'zi orollarda, Hindiston va Shri-Lanka o'rmonlarida yashaydi.







**HAYVONOT OLAMIGA SAYOHAT**






# QUSHLAR

*Qushlar tanasi pat va parlar bilan qoplangan hamda oldingi oyoqlari qanotga aylangan, issiqqonli, umurtqali hayvonlardir. Qushlar Arktikadan Antarktida qirg'oqlarigacha bo'lgan hamma joyda tarqalgan. Ba'zi qushlar o'troq, ko'pchiligi yashash muhitining o'zgarishi (qish boshlanishi, qurg'oqchilik, oziq-oyqat kamayishi) va boshqa omillar ta'sirida yashash joyini o'zgartirib turadi. Qushlarning jag' suyaklari tishsiz bo'lib, tumshuqni hosil qiluvchi shox g'ilofga o'ralgan bo'ladi. Tumshuqning shakli va katta-kichikligi ovqatlanishga va uni topish usuliga bog'liq ravishda turlicha bo'ladi. Qushlar hayotida ovozning ahamiyati juda katta, ular mayl bildirib qichqiradi, tahdid yoki tashvish bildirib, boshqa qushlarni ogohlantiruvchi tovushlar chiqaradi. Juftlanish davrida esa boshqa jinsdagilarini qo'shilishga chaqiradi. Qushlarning ko'zlari birmuncha katta bo'lib, uzoq va yaqinni yaxshi ko'ra oladi.*







## TUYAQUSH

Tuyaqushlar uchmaydigan qushlar bo'lib, *oddiy tuyaqush*, *kulrang reya* va *emu* deyiladigan turlari bor. Ular Afrika va Janubiy Osiyodagi dasht va cho'llarda hayot kechiradi, yirik hasharotlar va mayda umurtqali hayvonlar bilan oziqlanadi. Oyoqlari baquvvat bo'lib, dushmanlaridan qochib qutuladi. Oddiy tuyaqush yerdagi eng yirik qush bo'lib, bo'yi 2,4 m gacha, og'irligi 130 kg gacha keladi, soatiga 70 km gacha tezlik bilan yuguradi. Tuyaqushlar 6—8 ta tuxum qo'yadi. Tuxumining kattaligi 12—15 sm bo'ladi. Tuyaqushlar 90 yilgacha yashashi mumkin.

**Bilasizmi?**

*Yirik tuyaqush oyog'i bilan tepganida kuchli zarba berishi mumkin.*





## TOVUS

Tovuslar—tovuqsimonlar turkumiga kiradigan qush. Ularning 2 xil turi bor. Oddiy tovus tanasining uzunligi 100—125 sm, dumi 40—45 sm, og‘irligi 4 kg atrofida bo‘ladi. Boshi, bo‘yni va ko‘kraginging bir qismi yashil, orqasi ko‘k, tanasining osti qora. Hindiston, Shri-Lanka orolida keng tarqalgan. Yashil qanotli tovus Hindixitoy, Malakka va Sumatrada tarqalgan. Tovuslar butazorlar, daryo qirg‘oqlarida yashaydi. O‘simlik, hasharot va mayda umurtqalilar bilan ovqatlanadi. Erkagining dumi uzun va nihoyatda chiroyli bo‘ladi. Urg‘ochisini jalb qilish uchun dumini yarim doira shaklida yoyib ko‘targanida nihoyatda go‘zal manzara hosil bo‘ladi. Tovus uyasini yerga quradi, 5—6 ta tuxum qo‘yadi, tuxumlarini bir oyda ochib chiqadi.









## TO'TILAR

*To'tilarning* 300 dan ortiq turi ma'lum. Tanasi 10 sm dan 14 sm ga qadar boradi. Patlari yorqin tusda (yashil, qizil va ko'k, aralash, ba'zan qora va kulrang), tumshug'i yo'g'on, qaytarilgan. Tumshug'ining ustki qismi harakatchan bo'lib, uning yordamida daraxtlardagi qattiq mevalarni chaqadi, tirnoqlari mustahkam, 1- va 4- barmoqlari orqaga qayrilgan. Gala bo'lib yashaydi. Ko'pchiligi yaxshi uchadi.

To'tilar tropik va subtropik mintaqalarda, ayniqsa, Janubiy Amerikada, Avstraliyada ko'p tarqalgan. Uyasini kovaklarga, toshlar yorig'iga quradi, o'simlik mahsulotlari, hasharotlar bilan oziqlanadi. Ular 50 yilgacha va undan ham uzoq yashaydi. Chiroyliligi va ayrim tovush, so'zlarni ifodalashga o'rgatish mumkin bo'lgani uchun ba'zilarini qafasda boqadilar.

### **B**ilasizmi?

*Dunyoda uchmaydigan yagona to'ti Yangi Zelandiya o'rmonlarida yashaydi va Kakadu deb ataladi, u o'rmonda tunda yer yuzasidan ovqat topib yeydi. Janubi-sharqiy Osiyoda ba'zi to'tilar butoqlarga osilib, boshi yerga qaragan holda hayot kechiradi. Dunyodagi eng katta to'ti Markaziy va Janubiy Amerikada yashaydigan Ara nomli to'ti bo'lib, uzunligi 90 sm dan ortiqdir.*







## TURNA

**Turnalar** — oyoqlari ingichka va uzun, bo‘yni uzun, dumi qisqa, bo‘yi 1—1,5 m keladigan yirik qushlardir. Afrika, Yevropa va Osiyoda, Shimoli-sharqiy Sibirda cho‘l, tundra va botqoqliklarda juft bo‘lib yashaydi. Urug‘, kurtak, meva, hasharot, mayda kemiruvchilar bilan ovqatlanadi. Ko‘chmanchi qush, rangi ko‘k, qora va kulrang bo‘ladi.


## TUVALOQ

**Tuvaloqlar** — turnasimonlar turkumiga kiradi. Bo‘yni uzun, oyoqlari baquvvat, barmoqlari kalta, oyoq tagida qadoqsimon yostiqliklari bor, dumi kalta bo‘ladi. Tuvaloqlar yaxshi ucholmaydi, lekin tez yuguradi, shu sababli O‘rta Osiyoda uchraydigan turi yo‘rg‘a tuvaloq ham deyiladi. Dasht va cho‘llarda yashaydi, o‘simliklar, hasharotlar bilan ovqatlanadi. Qanotining uzunligi 32—42 sm, og‘irligi 1,5—2 kg keladi.

## QIRG‘OVUL

**Qirg‘ovullar** (ba‘zan tustovuqlar ham deyiladi) tanasining uzunligi 80 sm atrofida, og‘irligi 1,5—2 kg keladi. Nari uzun dumli, yaltiroq patli, modasidan kattaroq bo‘ladi. Modasi kulrang-sarg‘ish tusda bo‘ladi. Qirg‘ovullar Kavkazdan Yaponiyagacha bo‘lgan joylarda tarqalgan. O‘zbekistonda ilgari ko‘p uchrar edi, hozirda Zarafshon qo‘riqxonasida va ovchilik xo‘jaliklarida ko‘paytiriladi.

Qirg‘ovullar o‘rmon hamda daryo va ko‘llar atrofidagi chakalakzor, to‘qaylarda yashaydi. Urug‘, meva, hasharot va chuvalchanglar bilan ovqatlanadi. Yerga uya quradi va 10—18 ta tuxum qo‘yadi. 24—25 kunda jo‘ja ochib chiqadi. Qirg‘ovullar go‘шти va pati uchun ovlanadi.











## LAYLAK

**Laylaklar** uzun oyoqli qushlar turkumidan bo'lib, tropik, subtropik va mo'tadil mintaqalarda tarqalgan. O'zbekistonning deyarli hamma vohalarida oq laylak uchraydi. Uning tumshug'i, oyoqlari qizil, ustki pati oq, qanot patlari qora, vazni 4 kg gacha bo'ladi. Uyasini daraxtlarga, qoyalarga va minora tomlariga quradi. 3—5 ta tuxum qo'yib, 30 kunda ochib chiqadi. Baqa, kaltakesak, sichqon, hasharotlar bilan ovqatlanadi. Markaziy va Janubiy Afrikada, Hindiston va Janubiy Osiyoda qishlaydi. O'zbekistonga mart boshlarida uchib kelib, oktabr o'rtalarida uchib ketadi.

### Bilasizmi?

*Laylak tomog'idan umuman ovoz chiqara olmaydi, u tumshug'ini taqillatishi mumkin, xolos.*

## OQQUSH

**Oqqushlar**—o'rdaklar oilasiga kiruvchi eng yirik qushlardir. Gavdasining uzunligi 150—180 sm, vazni 10—13 kg bo'ladi. Bo'yni tana uzunligiga teng. Rangi ko'pincha oq, shu sababli ham oqqush deyiladi. Shipun degan turining bo'yni egik va tumshug'ida qora g'urrasi bo'ladi. Oqqushlar O'rta Osiyo, Qozog'iston, Sibir va Yevropada ko'p uchraydi. Chuchuk suvli ko'l, ba'zan dengiz qirg'oqlaridagi qamishzorlarga uya quradi. 5—12 ta tuxum qo'yib, modasi 30—40 kun bosib yotadi. Oqqushlar juda yaxshi uchadi va suzadi. O'simliklar, mayda suv jonivorlari bilan ovqatlanadi.

### Bilasizmi?

*Oqqushlar bir-biriga nihoyatda sadoqatli qush bo'lib, nari bilan modasi bir umrga birga bo'ladi. Aytishlaricha, oqqushlardan biri biror sababga ko'ra nobud bo'lsa, ikkinchisi o'zini yuqoridan pastga katta tezlikda tosh kabi tashlab, nobud bo'lar ekan.*



## QARQARA

*Qarqaralar (qo‘tonlar ham deyiladi)*— laylaksimonlar turkumiga kiradi. Bo‘yni, oyoqlari va barmoqlari uzun. Tumshug‘i to‘g‘ri, uchli. Rangi ko‘kimtir, kulrang, qo‘ng‘ir, oq bo‘ladi. Tropik va subtropik mamlakatlarda o‘troq yashaydi. Suv havzasi qirg‘oqlaridagi chakalakzorlarda, o‘tloq yoki ochiq yerlarda hayot kechiradi. Daraxt, buta yoki qamishlar ustiga uya quradi. Mayda baliq, baqa, hasharot, ba‘zan kemiruvchilar bilan ovqatlanadi.

O‘rta Osiyoda, xususan, O‘zbekistonda *oq qo‘ton, ko‘k qo‘ton, jiyron qarqara* nomli turlari bor.

## FLAMINGO

*Flamingo*— tanasining uzunligi 90—120 sm keladigan g‘ozsimon qush bo‘lib, tumshug‘i katta va qayrilgan, oyoqlari va bo‘yni uzun, yaxshi suzadi. Patlari oq bo‘lib, pushti rangda tovlanadi, qanotlarining uchi qora. Suvda yurib, o‘simliklarning urug‘lari, suvo‘tlar, mollyuskalar va suv hasharotlarini terib yeydi. Janubi-g‘arbiy Yevropa, Afrika, Janubiy Osiyo, Amerikada tarqalgan. Dengiz qirg‘oqlarida va sho‘r ko‘llarda to‘da bo‘lib yashaydi. Balchiqdan yoki qumdan konussimon uya quradi, ba‘zan to‘g‘ridan to‘g‘ri qumga tuxum qo‘yadi. Tuxumini 1 oy davomida modasi va nari navbatma-navbat bosib yotadi. Kaspiy dengizining janubida qishlaydi.



## O'RDAK

**O'rdaklar** o'rdaksimonlar oilasiga mansub qushlardir. Ular dunyoning deyarli hamma yerida tarqalgan. Tuzilishi va biologik xususiyatlari jihatidan *chin o'rdaklar*, *qora o'rdaklar* va *cheragalarga* bo'linadi. Chin o'rdaklar suvga sho'ng'iy olmaydi, sayoz suvlar yoki quruqliklardan oziq topib yeydi, o'simlik va hayvon mahsulotlari bilan ovqatlanadi. Ba'zi o'rdaklar esa suvga sho'ng'ib, suv tagidan ovqat topadi.

**Yovvoyi (qora) o'rdak** O'zbekistonning suv havzalariga ko'plab uchib keladi va qishlaydi. Makiyonining usti va pastki tomoni qoramtir, erkagining boshi, ko'kragi va orqasi qoramtir bo'ladi. Suzib borayotganda erkagining boshi to'q yashil va bo'yni oq, makiyonining esa tumshug'i zarg'aldoq va dumi oqimtir bo'lib ko'rinadi. Qattiq g'a-g'alab uchadi. Sayozliklarda suvga tikka sho'ng'ib, suv tagidagi urug', maysa, piyozboshi va tunganaklarni uzib yeydi. Jo'jalari, asosan, mayda jonivorlar bilan oziqlanadi.





## KAKKU

**Kakkular** Yer yuzasining deyarli hamma qismidagi o'rmonlarda tarqalgan, bir necha turlari bor. Bo'yi 30—40 sm, yozilgan qanotlari 55—70 sm keladi. Usti odatda to'q kulrang, ba'zan qizg'ish, tag tomoni yo'l-yo'l bo'ladi.

O'zbekistonda kakku daryo vodiylarida, vohalarda, tog' etaklarida va tog' o'rmonlarida uchraydi. Afrika, Janubiy Osiyo va Janubiy Amerikada qishlaydi. Hasharotlar va ularning lichinkalari, qo'ng'iz, chumolilar, qurtlar bilan ovqatlanadi. Kakkularning ko'pchilik turlari o'zi in qurib, tuxumini o'zi bosadi. O'zbekistonda uchraydigan oddiy kakku esa begona qushlar inidagi bitta tuxumni chiqarib tashlab, o'rniga o'zi tuxum qo'yadi. Tuxumlari rangi va kattaligi jihatidan «in egasining» tuxumiga o'xshaydi. Shunday qilib, begona qush kakku tuxumini ham bosib, jo'ja ochib chiqadi. Tuxumdan chiqqan kakku bolasi 2—3 kunda tez o'sib, uya egasining bolalarini uyadan tushirib yuboradi va bir o'zi boquvda qoladi. 25—27 kundan keyin mustaqil hayot kechira boshlaydi.


### Bilasizmi?

*Kakkularning 130 dan ortiq turi bor. Ularning ichida eng ajoyibi Kaliforniya kakkusi bo'lib, yaxshi ucha olmaydi, lekin o'ljasini quvganida soatiga 30 km gacha tezlik bilan yugurishi mumkin.*



## CHITTAK

**Chittaklar** chumchuqsimonlar turkumiga kiradigan kichkina qushlardir. Ularning bir necha turi bor: kokilli chittak, mo'ylovdor chittak, katta chittak va hokazo. Tumshug'i qisqa, oyoqlari baquvvat, tirnog'i ichiga qayrilgan. Boshi, tomog'i qora, ko'kragi qora yo'lli sariq, usti, qorni va yoni sarg'ish-ko'kimtir. Yevropa, Osiyo, Afrika hamda Janubiy Amerikada tarqalgan, O'zbekistonda oq chittak, sariq tomoq chittak, katta chittak, vohmaqush kabi turlari yashaydi. Uyasini daraxt kovaklariga, shox-shabballarga quradi. Zararkunanda hasharotlar bilan ovqatlanadi, juda foydali qush.









## CHUG'URCHIQ

**Chug'urchiqlar** Yevropa, Osiyo, Afrika, Avstraliyada tarqalgan. Gavdasi 20 sm dan 40 sm gacha, oyoqlari yerda va daraxtda harakatlanishga yaxshi moslashgan. Voyaga yetganlarining rangi tovlanib turadi. O'rta Osiyoda mayna, soch, qorashaqshaq kabi turlari uchraydi. Hasharotlar va ularning lichinkalari bilan ovqatlanadi.

**Bilasizmi?**

*Chug'urchiqning o'zi 60 g atrofida bo'lgani holda kuniga 200 g ga yaqin chigirtka va boshqa hasharotlarni tutib yeydi.*





## MAYNA

*Mayna* chumchuqsimonlar turkumiga kiradigan sayroqi o'troq qush bo'lib, chug'urchiqning bir turi desa ham bo'ladi. O'rta Osiyo, Hindiston, Pokiston, Birma va boshqa joylarda tarqalgan. O'zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida uchraydi. Orqasi va qorni qo'ng'ir, tumshug'i, ko'z atrofi sariq, boshining tepasi va yoni qora rangda tovlanadi. Dumining tagi va qanot osti oq rangda bo'ladi. Tanasining uzunligi 25 sm atrofida, vazni 40—60 g keladi.

Mayna hasharotlar, chigirtkalar bilan ovqatlanadi. Uyasini daraxt kovaklariga, jarliklardagi yoriqlarga o't-pat, yung va boshqalardan quradi. Kattaligi 30—20 mm keladigan 3—6 ta havorang tuxum qo'yadi. Mayna ko'pincha qo'y va sigirlarning ustiga qo'nib, pashsha, so'na va boshqa parazitlarni terib yeydi. Juda foydali qush.



## BULBUL

*Bulbullar* chumchuqsimonlarga mansub sayroqi qushlardir. Sharq bulbuli bilan G'arb bulbuli ko'p tarqalgan. Ular qanotining tuzilishi bilan bir-biridan farq qiladi. Bulbulning bo'yi 20 sm gacha, usti qo'ng'ir va to'q malla, qorni oqish bo'ladi. Sharq bulbuli Sharqiy Yevropa va Osiyoning bir qismida yashaydi, qishda Afrikaga uchib ketadi. O'zbekistonga bahorda kelib, kuzda uchib ketadi. G'arb bulbuli G'arbiy Yevropa, Kichik Osiyo, Eron, Afg'onistonda tarqalgan. O'zbekistonga ham uchib keladi, butazor, o'rmon, to'qay kabi nam yerlarda yashaydi.

Bulbulning erkagi kelgan kundan boshlab, bolalari tuxumdan chiqquncha kecha-kunduz sayraydi. Hasharotlar va ularning lichinkalari bilan ovqatlanadi.

**Bilasizmi?**

*Vengriya ornitologlarining ma'lumotlariga qaraganda bulbul 2000 kuyda sayrashi mumkin ekan.*






## QALDIRG'OCH

*Qaldirg'ochlar* chumchuqsimonlar turkumiga mansub bo'lib, ularning bir necha turlari bor. Qanotlari uzun va tor, oyoqlari kalta, deyarli yura olmaydi, yerga faqat ini uchun material to'plashga tushadi. Yer yuzasining Arktika va Antarktidadan boshqa hamma qismida tarqalgan. O'zbekistonda shahar va qishloqlarda uy qaldirg'ochi ko'p uchraydi. Ular uchib yuradigan hasharotlarni havoda tutib yeydi. Hasharotlar esa faqat issiq havodagina uchadi, demak, qaldirg'ochlar och qolishi mumkin. Shu sababli ular qishda Afrika hamda Janubiy Osiyoga uchib ketadi. Qaldirg'ochlar mart oyida uchib keladi va aprel-may oylarida in quradi. Qaldirg'och inini, ko'pincha, yarim doira shaklida jun va xas-xashak aralash loydan yasaydi. Yiliga 1—2 marta 4—6 tadan tuxum qo'yadi. Tuxumini 14—16 kunda ochib chiqadi. Qaldirg'ochlar avgust oyining oxirlarida oila bo'lib, issiq mamlakatlarga uchib ketadi.







## PINGVIN

*Pingvinlar* suzuvchi qushlar qatoriga kiradi. Bir necha turlari bor. Gavdasining uzunligi 40—120 sm, vazni 3—42 kg, qorni, ko'kragi oq, orqasi to'q ko'k yoki qora. Qanoti tangachasimon patlar bilan qoplangan kurakoyoqqa aylangan; suzganda, sho'ng'iganda shu kurakoyoqdan eshkak sifatida foydalanadi. Muz va qor ustida qadamlab yuradi. Antarktida va Janubiy yarim sharning o'rta mintaqalarida tarqalgan. Baliq, mollyuskalar, qisqichbaqasimonlar bilan ovqatlanadi. Modasi 1—2 ta tuxum qo'yadi va nari bilan navbatma-navbat bosadi. Shoh pingvin deyiladigan turida tuxumni faqat nari qishda uch oyga yaqin bosib yotadi. Bu davrda pingvinlar ovqat yemaydi.

### Bilasizmi?

*Pingvinlar zarur bo'lganda qorda soatiga 25 km tezlikda yugurishi mumkin. Bunda ular qorni bilan sirpanadi, kurakoyoqlaridan chang'ichilar tayoqchalariga o'xshash oldinga itarilish uchun foydalanadilar. Pingvinlar tuxumini bosib yotmaydi, panjasida ushlab, qornidagi teri burmasi bilan o'rab, isitib yotadi. Pingvinlarning tili mayda, o'tkir tishlar bilan qoplangan bo'ladi, ular silliq baliqni og'izda tutib turishda yordam beradi. Pingvinlar sovuqqa eng chidamli qush. Tuxumini—60° va 70°C sovuqda ochib chiqadi.*






## KAKLIK

**Kakliklar** sovuq iqlimga moslashgan va patlarining rangi mavsumga qarab o'zgarib turadigan qushlar qatoriga kiradi. Ularning tumshug'i va oyoqlari qizil, erkagining peshonasi qora, bosh tepasi ko'kimtir kulrang bo'lib, qizg'ish g'ubori bor. Ikki yonidagi patlarida zang, qora va qo'ng'ir tusli ko'ndalang yo'llari bor.

Kaklik mamlakatimizning hamma tog'larida bor. Uzoq masofaga ucholmaydi, lekin tez yuguradi. Uyasini toshlar, butalar, archa daraxtlari ostiga quradi. 6 tadan 20 tagacha tuxum qo'yadi. Jo'jasi tuxumdan 20 kunda chiqadi va ota-onasiga ergashib ketaveradi. Kaklik o'simliklarning kurtagi va barglari, don va urug'lar, hasharotlar bilan ovqatlanadi. Go'shti juda mazali bo'ladi. Ularni noyabr-dekabr oylarida ovlashga ruxsat etiladi. Qishda kakliklar tanasi oq pat bilan qoplanadi.







## QUZG'UN

*Quzg'un* —qarg'asimonlar oilasiga kiruvchi qora qush bo'lib, tanasining uzunligi 60—65 sm, qanotining uzunligi 38—55 sm, yoygandagi uzunligi 125—130 sm keladi. Yevropa, Osiyo, Shimoliy va Markaziy Amerika, Shimoliy Afrikada keng tarqalgan. O'zbekistonning deyarli hamma joyida uchraydi. Patlari qora bo'lsa ham ko'k yoki yashil tusda yaltiraydi. O'troq yoki ko'chib yurib (qishda shahar atroflarida gala-gala bo'lib) yashaydi.

Daraxt, qoya, baland inshootlarga uya quradi.


Hasharotlar, mevalar, kaltakesaklar, qushlarning tuxumlari va o'limtiklar bilan ham ovqatlanadi. O'rta Osiyo cho'llarida *cho'l quzg'uni* deyiladigan turi uchraydi.





## HAYVONOT OLAMIGA SAYOHAT





# BALIQLAR

*Suvda yashaydigan, jabra orqali nafas oladigan umurtqali hayvonlar baliqlar sinfiga kiritiladi. Ular go'shtdor, baquvvat dumi yordamida harakat qiladi, suzgich qanotlari esa qo'shimcha harakat organi hisoblanadi. Yashash joyiga va hayot tarziga qarab baliqlarning tanasi xilma-xil shaklda tuzilgan. Baliqlar tanasining rangi ham yashash sharoitiga moslashib, himoyaviy tus olgan bo'ladi. Yirtqich baliqlarning og'zi katta va jag'lari tishli bo'ladi, boshqalarining og'zi kichik va jag'larida tish bo'lmaydi. Baliq suvda tanasining orqa qismi yordamida oldinga harakatlanadi. Yon muskullari qa-yishqoq umurtqasini goh bir tomonga, goh ikkinchi tomonga egib, dumining harakatini boshqaradi. Harakat yo'nalishini o'ngga, chapga, yuqoriga, pastga o'zgartirish uchun baliq boshqa suzgich qanotlaridan foydalanadi. Garchi baliqlar sinfiga kirmasa ham, yashash tarzi va tashqi ko'rinishidan baliqlarga o'xshash bo'lganligi uchun ushbu bo'limni kitlar va delfinlar bilan tanishtirishdan boshlashni lozim topdik.*







## KIT

**Kitlar** suvda yashovchi hayvonlarning bir turkumi, 100 ga yaqin turi bor. Bo'yi 1,2 m dan (dengiz cho'chqasi) 33 m ga qadar (ko'k kit) bo'ladi. Orqa oyog'i yo'q, oldingisi rul vazifasini bajaradigan kurakka aylangan, dumida gorizontal o'rnashgan ikki pallali dum suzgich qanoti bo'ladi. Tez-tez suv betiga chiqib, o'pkasini havo bilan to'ldirib turadi. Boshi ustiga o'rnashgan tashqi burun teshigida ochilib-yopilab turadigan qopqoq bor. Burun teshigidan bug' aralash havo fontan bo'lib otilib turadi. Kitlar baliqlar, qisqichbaqalar, molluskalar va planktonlar bilan ovqatlanadi, suv ostiga 200 m va undan ortiq chuqurlikka sho'ng'iydi. Suv ostida 1 soatdan ko'proq tura oladi. Kaspiy, Orol dengizidan boshqa barcha dengiz va okeanlarda tarqalgan.

### Bilasizmi?

*Kitlar o'z tanasining 1/3 qismiga teng bitta bola tug'adi. Urg'ochisining bir juft emchagi maxsus xaltachaga joylashgan bo'ladi. Bolasining labi harakatlanmagani uchun emolmaydi, emchakni maxsus muskullar siqib, sutni bolasining og'ziga chiqarib beradi. Bolasi tug'ilgan zahoti suza boshlaydi, onasini 3—8 oy emadi va 3 yoshda voyaga yetadi.*







**Ko'k kit** kitlarning eng yirigidir. Uning bo'yi 34 m ga qadar, vazni 165 tonna va undan ham og'ir bo'ladi. Barcha okean va ochiq dengizlarda keng tarqalgan, iliq suvlarda kam uchraydi. Yuqori jag'ining har tomonida 400 tadan 800 taga qadar uzunligi 1 metrga yaqin qoramtir shox plastinkalar—kit mo'ylovlari bor. Gavdasi to'q kulrang, ko'krak va ikki yon tomoni havorang tovlanib turadi.

### Bilasizmi?

*Yangi tug'ilgan ko'k kit bolasi gavidasining uzunligi 7—8 m va og'irligi ikki tonnagacha bo'ladi. Bitta ko'k kitdan 20 tonnaga qadar moy, 35—40 tonna go'sht, bir tonna jigar va boshqa mahsulotlar olish mumkin.*



**Janub kiti** gavidasining uzunligi 13—15 m bo'ladi, Atlantika okeanida va Tinch okean shimoliy qismining o'rta mintaqasida tarqalgan. Yelka suzgich qanoti yo'q, dum va ko'krak suzgich qanotlari keng va kattadir. Og'iz bo'shlig'ida 500—750 tacha shox plastinkasi («kit mo'ylovi») bor. Tanasi asosan qora, qorin tomoni oq bo'ladi, mayda qisqichbaqasimonlar bilan ovqatlanadi. Urg'ochisi ikki yilda bitta bola tug'adi.

Kitlarning *bukri kit, bo'z kit, qutb kiti* kabi turlari ham bor.









## DELFIN


**Delfinlar**—kitsimonlar turkumining bir turi. Kaspiy va Orol dengizidan tashqari barcha okean va dengizlarda keng tarqalgan. Yelkasida o‘roqsimon shaklda yelka suzgich qanoti bor, tumshug‘i uzun va ajralib turadi. Jag‘larida 200 dan ortiq mayda tishlari bor. Tanasining ustki qismi, boshi qora, qorin va ikki biqini oq bo‘ladi. Bo‘yi 2,5 m gacha, og‘irligi 45—55 kg bo‘ladi, kichikroq baliqlar bilan ovqatlanadi. Bitta, ba‘zan ikkita bola tug‘adi. Delfin odamga tez o‘rganadi.

Delfinlarning oq biqinli delfin, qo‘ng‘ir delfin, kitsimon delfin deyiladigan turlari bor.

### Bilasizmi?

*Delfin yog‘i tibbiyotda ishlatiladi, go‘shidan har xil kolbasalar tayyorlanadi. Suv o‘tkazmaydigan terisidan oyoq kiyimlar, portfel, sumka va jomadonlar ishlab chiqariladi. Delfinning 96 ta tishi bor, lekin u ovqatni chaynamasdan yutadi.*











## LAQQA BALIQLAR (SOMSIMONLAR)

*Laqqa baliqlar* tanasi tangachasiz, ogʻzining atrofida bir necha juft moʻylovi boʻladi. Tishlari jagʻ suyaklari bilan dimogʻ suyagiga joylashgan, orqadagi suzgich qanoti kichkina, koʻkragidagi suzgich qanotlari tikanli boʻladi. Laqqa baliqlar juda turli-tumandir. Baʼzilarining boʻyi 5 m gacha, ogʻirligi 300 kg ga bors, boshqalari 2—3 sm va bir necha gramm keladi, xolos. Ular Janubiy va Markaziy Amerika, Afrika va Osiyoning iliq iqlimli, chuchuk suvli daryo va suv havzalarida yashaydi. Dengizning shoʻr suvlari va sovuq suvlarda deyarli uchramaydi. Oʻzbekistonda laqqa baliqlar Orol dengizining qirgʻoqlari yonida, koʻllarda va daryolarning oʻzanida hayot kechiradi, koʻpincha, suvning chuqur joylarida boʻladi. Mayda baliqlar va suvdagi mayda hayvonlar bilan ovqatlanadi. Daryolarda toʻr yoki qarmoq bilan tutiladi. Ustki tomoni yashil-qora, osti oq boʻladi.

### **B**ilasizmi?

*Bitta laqqa baliq urgʻochisining katta-kichikligiga qarab 100 mingdan 500 mingtagacha tuxum tashlaydi. Laqqa baliqlar ovqatini koʻrib emas, moʻylovlari orqali sezib topadi. Laqqa baliqning tozalab yuvilgan terisi juda shaffof boʻlib, ilgari „baliq pufagi“ nomi bilan deraza oynalari oʻrnida ishlatilgan.*



## OSYOTRLAR

*Osyotr baliqlar*, asosan, Yer kurrasining shimoliy yarmida—Yevropa, Shimoliy Osiyo va Shimoliy Amerikaning sho‘r va chuchuk suvlarida yashaydi. Ularning cho‘zinchoq tanasi besh qator yirik qavariq suyak plastinkalar bilan qoplangan. Tumshug‘i cho‘ziq, konus shaklida. Og‘zi boshining pastki tomonida, tishsiz bo‘ladi. Osyotrlarning ba‘zilari (beluga) 50—60 yil yashaydi.

O‘zbekiston suvlarida osyotr baliqlarning ship degan turi bor. Uning bo‘yi 2 metrgacha, og‘irligi 80 kg gacha boradi. Ko‘chib yuradigan baliq. Orol dengizining sharqiy sohillaridagi sho‘r bosgan qo‘ltiqlaridan boshqa hamma joyida ship bor. Ship Chinoz bilan Bekobod o‘rtasidagi toshloq sayozliklarda, shuningdek, Amudaryoning Nukus yaqinidagi va undan yuqori qismlarida, apgelning ikkinchi yarmida tuxum qo‘yadi. Asosan, mollyuskalar bilan ovdatlanadi. Ship 30 yil va undan ko‘proq yashaydi.







## TRESKALAR

*Treskalar* baliqlarning eng ko'p tarqalgan turi, Atlantika va Tinch okeanlarida yashaydi. Atlantika treskasi Atlantika okeanining shimoliy qismida, Barents dengizida va Shimoliy Muz okeaniga tutashib ketadigan joylarda yashaydi. Ular treskalar orasida eng yirigi bo'lib, uzunligi 150—180 sm ga, og'irligi 40 kg ga yetadi. Mart-aprel oylarida 100 m gacha chuqurlikda millionlab tuxum qo'yadi. Lekin ulardan 2—3 tasigina yashab qoladi. Tuxumdan chiqqan baliqchalar dastlabki ikki yilda sovuq suvda yashayveradi va mayda qisqichbaqasimonlar bilan ovqatlanadi. Uch yoshligidan boshlab treska yozda oqim bo'yicha shimol va sharqqa, qishda esa oqimga qarshi janub va g'arbga ko'chib yuradi. Treska mayda baliqlar va qisqichbaqasimon jonivorlar bilan ovqatlanadi, o'zining mayda bolalarini ham yeyaveradi. Treska 20—25 yil yashashi mumkin.

*Boltiqlik treskasining* uzunligi 1 metrdan uzunroq, og'irligi 10—11 kg keladi. 10 yilgacha yashaydi. Ko'l treskalari ham bor, ular dengiz treskalaridan kichikroq bo'ladi. Dunyo bo'yicha Atlantika treskasi har yili 3—4 million tonna ovlanadi.





## SEDLAR

Seldlar shimoliy dengiz seldlari, sardinalar, sarsinellalar, shprotlar kabi bir necha tur baliqlarni o'z ichiga oladi. Ular sovuq suvli dengizlarda ham yashaydi, lekin, asosan iliq suvli dengizlarda ko'p bo'ladi. Seldlarning deyarli hammasi tangachali baliqlardir.

**Dengiz seldlari**—sikloid tangachali, uzunligi 33—35 sm, yon tomonlari va qorni kumushsimon, usti ko'kish-yashil yoki yashil bo'ladi. Planktonlar bilan ovqatlanadi. Ko'pchiligi dengiz qirg'og'iga yaqin joyda yashaydi, tuxum tashlashda esa uzoqroqqa ketadi. Atlantika okeanining shimolida—Norvegiya va Islandiya qirg'oqlarida yashaydiganlari Atlantika seldi deyiladi. Ular gala-gala bo'lib yashaydi va to'r bilan ko'plab ovlanadi. Norvegiyaning o'zida yiliga 1—1,5 million tonna seld ovlanadi. Seldlar 15—18 yil yashaydi.

**Sardina va sardinellalar** iliq suvlarda va tropik suvlarda gala bo'lib yashaydigan seldlardir. Ularning uzunligi 30—35 sm ga yetadi, dum qanotlari ikkita uzunchoq parrakka o'xshash bo'lib, uning asosida ikkita cho'ziq tangachalar—„qanotchalar“ bo'ladi. Suvning yuqori qatlamlarida yashaydi, suvda oqib yuradigan tuxum tashlaydi; planktonlar, baliq tuxumlari bilan ovqatlanadi. 14 yilgacha yashaydi, ko'plab ovlanadi.

**Shprotlar** Yevropa, Janubiy Amerika, Janubiy Avstraliya va Yangi Zelandiyaning iliq va subtropik suvlarida yashaydi. Ko'krak va qorin tomonida tangachalarining ko'pligi bilan boshqa seldlardan farq qiladi. Shprotlar dengiz seldlaridan kichikroq, eng yirigi 17—18 sm keladi. Kuz va qishdagisi juda moyli va go'shti nihoyatda mazali bo'ladi. Shu sababli juda ko'plab ovlanadi.




## SAZANLAR

*Sazanlar* karpsimonlar oilasiga kiradigan baliqlardandir. Sazanlar tanasining keng va yo'g'onligi, tangachalarining yirik va zichligi, ustki suzgich qanotining uzunligi va qizg'ish tusda tovlanishi bilan ajralib turadi. O'zbekistonda uni zog'orabaliq ham deyishadi. Bo'yi 1 metrgacha boradi. Og'irligi 16 kg va undan ham ortiq bo'ladi.

Sazan O'rtayer dengizi, Qora dengiz, Azov dengizi, Kaspiy dengizi va Orol dengizining chuchuk suvli havzalarida, Issiqko'lda va Tinch okeanga quyiladigan daryolarda yashaydi, ariqlarda, sholipoyalarda, ba'zan daryolarning o'zanida ham hayot kechiradi. Zooplankton, molluskalar, hasharotlarning lichinkalari, chuvalchanglar, suv o'simliklari bilan ovqatlanadi. Suv o'simliklariga yoki quruqlikdagi o'simliklarning suvga botib turgan qismlariga tuxum qo'yadi.

Sazan Orol dengizida va Amudaryo o'zanida yoyma to'ribitan tutiladi, qarmoqqa ham ilinadi. Ba'zan suvdan baland sakrab chiqadi va cho'lpillab yana suvga tushadi. Buni tomosha qilish juda zavqlidir. Sazan ayrim xo'jaliklarda hovuzda ham ko'paytiriladi.





## LESHCHLAR

*Leshch* ham karpsimon baliq. Bu baliqning tanasi ikki yon tomondan qisilgan, qornining qirrasini tangasiz, tangalari o'rtacha kattalikda bo'lib, tanasiga zich yopishib turadi. Ko'krak suzgich qanotlari kulrang, boshqa suzgich qanotlari, ayniqsa, ularning uchi qoramtir bo'ladi. Baliqning bo'yi 45 sm gacha, og'irligi 3—5 kg gacha bo'ladi. Leshch 20 yil yashashi mumkin.

Yevropa, Markaziy Osiyo va Kavkazning iliq suvlarida yashaydi. O'zbekistonda Orol dengizida, Amudaryo va Sirdaryoda leshch juda ko'p. Qisqichbaqalar, molluskalar, suv o'simliklari bilan ovqatlanadi. Suv ostidagi o'simliklarga tuxum qo'yadi. Tuxumdan 3—5 kunda yosh baliq chiqadi. Leshch eng ko'p ovlanadigan baliqlardan biridir. U, asosan, to'r bilan tutiladi, qarmoqqa ham ilinadi.









## USACHLAR

---

Usachlar Afrika, Osiyoning chuchuk suvlarida, qisman Yevropadagi iliq suvlarda yashaydi. Tanasining uzunligi 1 m gacha, og'irligi 20 kg gacha bo'ladi. Og'iz burchaklarida bir juft, tumshug'ining uchida yana bir juft mo'ylovi bor. Boshi yassi, usti to'q qo'ng'ir tusda, qorni oqish bo'ladi. O'zbekistonda Zarafshon daryosi, Amudaryo va Sirdaryoda *Turkiston usachi* bor.

Usach, asosan, daryo o'zanlarida, ko'l va botqoqliklarda, o'simliklar qalin o'sgan joylarda yashaydi. Suvga 200 mingdan 500 minggacha tuxum qo'yadi. Turkiston usachining tuxumi ancha yirik—diametri 5—7 mm bo'ladi. Usach suv o'tlari, xironomidalarning lichinkalari bilan oziqlanadi. Ba'zan kichik baliqlar va quruqlikdagi hasharotlarni ham tutib yeydi. Usachni qo'zg'almas to'r bilan, ba'zan qarmoq bilan ham ovlaydilar.





## SKUMBRIYALAR

**Skumbriyalar** guruhiga haqiqiy skumbriyalar bilan tropik skumbriyalar kiradi. Ular ham, o'z navbatida, bir necha turlarga bo'linadi. Skumbriyalar unchalik katta emas, eng kattasining uzunligi 60 sm ga yetadi. Planktonlar va mayda baliqchalar bilan oziqlanadi. Tanasi cho'ziq, dumga yaqin joyi yon tomonlaridan siqilgan, ingichka. Asosiy suzgich qanotlaridan tashqari dum tomonida mayda suzgichlari ham bo'ladi.

**Tropik skumbriyalar** Hind okeanining tropik zonasi bilan Tinch okeanining g'arbiy qismida yashaydi. Og'zida tishi bo'lmaydi. Uzunligi 30 sm va og'irligi 350—400 g gacha bo'ladi. Pokiston, Hindiston, Birma, Malayziya, Indoneziyalarda ko'plab ovlanadi.

**Haqiqiy skumbriyalar**, asosan, iliq suvlarda yashaydi. Tinch okeanining Yaponiya, Koreya va Xitoy, Meksika, Peru va Chiliga tutash qirg'oqlarida, O'rtayer dengizi va Qora dengizda Yaponiya skumbriyasi degan turi ayniqsa ko'p tarqalgan. Uning uzunligi 50 sm ga va og'irligi 1,5 kg ga yetadi. Skumbriyaning go'shti yog'li va mazali bo'ladi. Ayniqsa, dudlangani va konservalangani ko'p iste'mol qilinadi.





## MARJON RIFLARDAGI BALIQLAR

**To'tibaliqlar** tishlari bir-biriga zich joylashgan bo'lib, to'tining tumshug'iga o'xshash plastinkalar hosil qiladi. Ular juda ochiq rangli bo'lib, rangi o'zgarib turadi. Marjon riflarda uzunligi 1—2 m keladigan to'tibaliqlar bo'ladi. Ular asosan marjon poliplar va molluskalar bilan ovqatlanadi. Yashaydigan joyidan uzoqqa ketmaydi, ba'zilar doimiy uyasida yashaydi. Kech kirishi bilan ular ko'p miqdorda shilimshiq ajratib chiqaradi va uning yordamida o'z atrofini qobiq bilan o'rab, uxlaydi.

**Farishta baliqlarning** yetti turi bor. Ba'zilarining uzunligi 60 sm ga yetadi, lekin ko'pchiligi kichik bo'ladi. Odatda, marjon riflarda yakka-yakka bo'lib yashaydi. Och binafsha rangli tanasida 25 taga yaqin bo'ylama sariq chiziqlar bor. Boshining yuqori tomoni och yashil, pastki tomoni qizg'ish-jigarrang, ko'zi sariq va ko'k chiziqlar bilan o'ralgan juda chiroyli baliqlardir.

**Qirol farishtasi** deb nomlanadigan baliq tanasidagi havorang va sariq, ko'zi atrofidagi qalin qora yo'llar yirtqichlarni cho'chitadigan rang hosil qiladi. Bu ranglar ayniqsa yosh baliqchalarda tiniq bo'ladi, baliq o'sgan sari rangi xiralashadi.

**Masxaraboz baliqlar** gavdasi yapaloq, ikki yon tomoni siqilgan, og'zi tepa tomonda, mayda tishli bo'ladi. Tanasining uzunligi 15—20 sm, rangi sarg'ish-yashil, turli shakldagi to'q va och dog'lari bo'lib, masxarabozga o'xshaydi. Tinch okeanning tropik va subtropik dengizlarida, odatda, marjon riflari va suv o'tlari orasida yashaydi. Mayda jonivorlar bilan ovqatlanadi. Biror xavf tug'ilganda siniq toshlarning tirqishlariga kirib olib, ustki suzgich qanotini toshga ilintirib turadi va uni tortib olish qiyin bo'ladi.



## AKVARIUM BALIQLARI

*Qilichdor baliqlar* gambuziyasimonlar oilasiga kiradi. Amerika qit'asidagi mayda suv havzalarida yashaydi, keyinchalik Italiya, Ispaniya, Kavkaz va O'rta Osiyoga ham keltirilgan. Orqa suzgich va dum suzgich qanotlari ingichka va uzun bo'ladi. Suv havzalaridagi o'tlarda bo'ladigan chivin tuxumlari, lichinkalar va mayda umurtqasizlar bilan ovqatlanadi. Rangi chiroyli tiniq, turlicha,



suzgichlarining uzunligi va shakli ham har xil bo'ladi. Sun'iy usulda urug'lantirish, har xillarini chatishtirish yo'li bilan qora, qizil, yashil, olachipor va boshqa xil qilichdor baliqlar olingan.

**Guppilarda** ham suzgichlar shakli va baliqning rangi turlicha bo'ladi. Ular, asosan, dum suzgich qanotining shakliga qarab farqlanadi. Dum suzgich qanoti belkuraksimon, ignasimon, dumaloq, yelpig'ichsimon, qilichsimon va boshqa turlari bor.

**Tilla baliqlar** Dunay, Dnepr, Volga daryolarida, Xitoy va Koreyadagi suv havzalarida yashaydigan kumushsimon karasdan keltirib chiqarilgan. Xitoy, Koreya va Yaponiyada baliqlarning o'nlab turlari yaratilgan, natijada uning tashqi ko'rinishi ham o'zgargan. Ba'zi turlarida yelka suzgichlari yo'qolib ketgan, ko'zlarining kattakichikligi va baliqning rangi ham o'zgargan. Hozir tillarang, qora, kumushsimon va boshqa baliqlar bor. Tillarang baliqlar 35—40 yil yashaydi.

**Kometaning** dumi tanasidan 3—4 marta uzun bo'ladi, ba'zilarida ko'krak va qorin suzgich qanotlari ham uzaygan. Rangi och qizil, kumushsimon, ba'zan dumi och sariq bo'ladi.

**Teleskoplar** ko'zi turli shaklda va kattalikda bo'rtib chiqqanligi bilan ajralib turadi. Rangi qora baxmalsimon, olachipor, dum suzgich qanotlari bir nechta taram-taram, gavdasi sharsimon cho'ziq, ayrimlarida yelka suzgich qanotlari bo'lmaydi.

**Xo'roz baliqlarda** qorin suzgichlari bo'lmaydi, uzunligi 25 sm ga yetadi, boshida bo'ylama toji bo'ladi. Tinch okeanining shimolida yashaydi, rang-barang, juda chiroyli. To'q qizil xo'roz baliq Amerika qirg'oqlarida, Alyaska bilan Kaliforniya oraliq'ida hayot kechiradi. Suv tubidagi (100—200 m) umurtqasiz jonivorlar bilan ovqatlanadi. Xo'roz baliqning oqmaydigan suvlarda yashaydigan, bo'yi 6 sm dan oshmaydigan juda chiroyli, lekin urishqoq turi ham bor.



**HAYVONOT  
OLAMINING  
AJOYIBOTLARI**








## HAYVONOT OLAMINING AJOYIBOTLARI

Fil qo'pol bo'lgani bilan ancha chaqqon va harakatchan desa bo'ladi, u soatiga 20 km tezlik bilan yugura oladi. Fil chanqaganida xartumiga 10 litrgacha suvni tortib olib, so'ngra og'ziga quyadi. Fil umri tugayotganligini sezishi bilan daryo yoki botqoqlikka boradi va cho'kib o'ladi, shu sababli uning skeletini topish qiyin.

Barcha yirik yirtqichlar orasida yuragi eng kichkinasi sherdir, lekin u eng qo'rqmas hayvon hisoblanadi.





Tuyaqush tuxumi tovuq tuxumidan 36 marta og'ir bo'ladi. Tuyaqush tepkisining kuchini ot tepkisining kuchiga tenglashtirish mumkin.

Jirafalarning faqat bo'yni emas, tili ham uzun bo'ladi—tilining uzunligi 60 santimetrga boradi.

Kiyiklar (g'izollar) xavf tug'ilganda soatiga 80 km tezlik bilan yuguradi, 12 m masofaga sakraydi, lekin gepard qisqa masofada tez yugurgani uchun quvganda g'izolga yetib oladi.



Kakkularning hammasida modasining ovozi chiqmaydi, oʻrmonlarda eshitiladigan «kak-ku» degan ovoz nar kakkuning modasini chaqirgan ovozidir.

Kaltakesaklarning koʻpchiligi zaharsiz boʻladi, lekin Shimoliy Amerikada yashaydigan djilla deyiladigan kaltakesak juda zaharli boʻlib, mayda hayvonlar bilan ovqatlanadi.



Silovsin ovqat topilmaganda zaharli ilonlarni ham tutib yeyishi mumkin.

Amerika quyonining quloqlari juda uzun bo'ladi, badanidagi suv shu quloqlari orqali bug'lanib, tanasini sovitadi, u soatiga 56 km tezlik bilan yugura oladi.

Dunyodagi eng kichik boyo'g'li Shimoliy Amerikada yashaydigan elf boyo'g'lidir, uning kattaligi chumchuqday keladi.



Yovvoyi qo‘ylar begona o‘tlarning 570 xilini yeydi, boshqa biror hayvon bunchalik ko‘p o‘t turini yemaydi. Qo‘ylarga qoraqurt kabi zaharli hasharotlarning zahari ta‘sir etmaydi.

Yerda yashaydigan barcha hayvon turlarining 60 foizini uchadigan mavjudotlar tashkil qiladi.

Uchadigan qushlardan eng yirigi Shimoliy Amerika kondoridir, u qanotlarini yoyganda uch metr dan ortadi.

Jayra cho‘kishni xohlasa ham cho‘ka olmaydi, chunki uning ninalarining ichi havoga to‘lgan bo‘lib, bu uning cho‘kishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Amazonka oʻrmonlarida chinqiroq maymun yashaydi, uning qichqirigʻi 5 kilometr gacha masofada eshitiladi.

Goatsin dunyodagi eng ajoyib qushlardan biri, uning bolalari tuxumdan chiqqandan 2—3 hafta oʻtgach, qanotlaridan ikkitadan tirnoq oʻsib chiqadi.

Kolumbiyaning tropik oʻrmonlarida tanasining usti qora va sariq yoʻlli zaharli baqa yashaydi. Uning terisidan ajralib chiqadigan zahar eng zaharli ilonlar zaharidan ham kuchliroqdir. Bir necha asrlardan beri aborigenlar ov nayzalarining uchiga shu zahardan suradilar va u tekkan jonivor albatta nobud boʻladi.





Ignabargli o‘rmonlar yozda ayniqsa ajoyib manzara kashf etadi. Ularda malla tulki, xol-xol bug‘u, olmaxon, boyo‘g‘li, tipratikan, ilonlar, lochin, kaptar, chittak, bulbul kabi turli-tuman hayvonlar va qushlarni uchratish mumkin.

Boyo‘g‘lining bo‘yni 270 gradusgacha burila oladi, shu sababli ko‘zlari qimirlamasa ham atrofidagi hamma narsani ko‘rib turadi.

Malla tulki juda ayyor, shu bilan birga mohir ovchidir. U



o'zining dushmanlarini adashtirib keta oladi, lekin o'ljasini (quyon, kemiruvchilarni) izidan borib topib oladi.

Deyarli barcha qushlar suvni yutish uchun boshini tepaga ko'taradi, faqat kaptar suvni simirib ichadi.

Lochin o'z o'ljasiga yuqoridan sho'ng'iganda soatiga 360 km tezlik bilan tushadi. Alyaskada yashaydigan risanka degan qush Gavayi orollariga uchib o'tayotganda Tinch okean ustidan 3200 km yo'lni to'xtamay bosib o'tadi.



Qo‘tonlar (qarqaralar)ning ko‘krak, bel va chovida maxsus parlari bo‘lib, ular mayda kukunga aylanib turadi. Bu kukun qo‘tonning hamma patlariga yopishib, qush tanasi va patlarini namiqishdan saqlaydi.

Yovvoyi o‘rdak suvda 1 metr chuqurlikka qadar sho‘ng‘iydi, gagaralar esa 20 metrgacha chuqurlikka sho‘ng‘ishi mumkin.

Qushlar kuniga 15 soatga yaqin vaqtni hasharotlarni ovlash bilan o‘tkazadi, ular inidagi bolalari oldiga bir kunda 300—





500 marta qatnaydi. Masalan, bitta chittak yiliga zararkunandalarning 6,5 millionga yaqin tuxumini yo‘q qiladi.

Kolibri deyiladigan qush havoda vertolyot kabi bir joyda siljimasdan tura oladi.

Mo‘l ovqat topgan chaykaning qichqirig‘ini sheriklari 5 kilometr masofadan ham eshitadilar.

Ninachilar yirtqich hasharotlardir. Ular, ko‘pincha, mayda pashshalar va qonxo‘r chivinlarni tutib yeydi.



Oq akulaning ko'zi hamma yo'nalishda ko'ra oladi.

Kitsimon akulaning bo'yi 20 m bo'lishiga qaramay, yirik baliqlar bilan emas, balki dengiz tubidagi plankton bilan ovqatlanadi, u jabrasi orqali o'tgan suvni filtrlab, to'plangan oziqni har minutda yutib turadi.

Arslonbaliq kichik (38 sm) bo'lsa ham, kuchli zahar ajratadi, suzgichlari yelpig'ichsimon ignali, uning zahari hatto odamni ham o'ldirishi mumkin.

Smarida degan baliqning bolalari hammasi urg'ochi bo'lib tug'iladi, lekin uch yil o'tgach erkak baliqqa aylanadi.

Dengiz iloni o'ljasini bir necha sekundda zaharlab o'ldiradi, so'ngra yutadi.

Ko'k halqali osminog bo'yi 4 sm bo'lgani bilan juda xavfli, uning so'lagidagi zahar odamni ham o'ldirishi mumkin.

To'tibaliqning tumshug'i to'tinikiga o'xshagani sababli shunday nom olgan.

Toshbaliq eng zaharli baliq hisoblanadi, u dengiz tubida yotadi, xavf tug'ilganda ignalarini chiqarib, yirtqichga zahar sochadi.





Oq ayiq va tulenlar minus  $80^{\circ}$  C gacha sovuqqa bardosh beradilar, g'oz va mushuklar esa minus  $110^{\circ}$  C sovuqqa ham chidaydi.

Qutb boyo'g'lisi boshqa boyo'g'lilardan farq qilib, kunduzi ov qiladi, chunki qutb sharoitida yorug' kun oylab davom etadi.

Delfinning 96 ta tishi bor, lekin u ovqatni butunicha yutadi.



Nerpa degan tulensimon hayvonni tutish uchun oq ayiq muz orasidagi chuqurchada soatlab poylaydi. Bu vaqtda qora tumshug'ini sezdirib qo'ymasligi uchun ayiq burnini panjasi bilan berkitib yotadi.

Ko'k kitning sutida 50 foizdan ortig'i yog' bo'ladi, sigir sutida 4 foiz, shimol bug'usining sutida 18 foiz yog' bo'ladi.

Kashalot (yirik kit) suvga sho'ng'ishdan oldin 50—60 marfa chuqur nafas oladi va shundan keyin suv ostida 2—2,5 soat tura oladi, kit 1000 metrdan ortiq chuqurlikka sho'ng'ishi mumkin.

### *FOYDALANILGAN ADABIYOT*

1. T. Z. Zohidov. Zoologiya ensiklopediyasi (sut emizuvchilar).  
T.: O'zbekiston FA nashriyoti. 1960.
2. Жизнь животных. Млекопитающие, том 6.  
М.: „Просвещение“. 1971.
3. O. Bogdanov. O'zbekistonning hayvonot dunyosi (umurtqalilar).  
T.: „O'zbekiston“. 1965.
4. Жизнь животных. Пресмыкающиеся, том 4.  
М.: „Просвещение“. 1969.
5. Жизнь животных. Рыбы, том 4. М.: „Просвещение“. 1983.
6. М. С. Прокопенко. В мире интересного.  
Т.: „Ёш гвардия“. 1969.
7. М. С. Прокопенко. Невероятно, но факт.  
Т.: „Ёш гвардия“. 1971.
8. Р. Ж. Беме, А. Ж. Кузнецов. Птицы разных материков.  
М.: „Просвещение“. 1986.

## MUNDARIJA

Hayvonot olami haqida .....	5
<b>YIRTQICHLAR</b> .....	7
<b>PRIMATLAR-MAYMUNLAR</b> .....	39
<b>O'TXO'R HAYVONLAR</b> .....	51
<b>KEMIRUVCHILAR</b> .....	84
<b>SUDRALIB YURUVCHILAR</b> .....	99
<b>ILONLAR</b> .....	101
<b>KALTAKESAKLAR</b> .....	113
<b>QUSHLAR</b> .....	123
<b>BALIQLAR</b> .....	149
<b>HAYVONOT OLAMINING AJOYIBOTLARI</b> .....	176

PAKISTAN

28.6  
M54

M54 Mirzayev R., Rahimov A.  
Hayvonot olamiga sayohat /Muqova rassomi va  
dizayner: O. Baklikova. –T.: „Zar qalam“, 2004. 192  
(Bilimlar olami bolalarga).

BBK 28.6

**Rustam Alimovich Mirzayev**  
**Abduvohit Abdurazakovich Rahimov**

## **HAYVONOT OLAMIGA SAYOHAT**

**Toshkent • „ZAR QALAM“ • 2004**

**Muharrir B. Akbarov**

**Muqova rassomi va dizayner O. Baklikova**

**Texnik muharrir T. Smirnova**



Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 01.03.2004  
Bichimi 60x901/8. Shartli b.t. 24,0.  
Nashr t. 24,0. 10 000 nusxada bosildi.  
Buyurtma № A-5431 „QALDIRG‘OCH NASHRIYOTI“.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining Toshpoligrafkombinati.  
Toshkent, Navoiy, 30.